




12 ЯНВАР — БУЮК АДИБ ТАВАЛЛУДИНИНГ 140 ЙИЛЛИГИ

Эркак киши ўз вақтида хотинининг қадрига етмайди, унинг қанчалик зарурлигини яхши тушунмайди, хотини дунёдан ўтиб, бева қолгандагина хотинининг ўрни қаттиқ билинади, шундагина унинг қадрини тушунади.

Жек Лондон БЎРИ ЎҒЛИ

Аслиятдан Гулҳаё Маҳамадалиева таржимаси



Америкалик таниқли ёзувчи, публицист, жамоат арбоби, машҳур ҳикоялар ва романлар муаллифи Жек Лондон 1876 йилнинг 12 январида Сан-Францискода тугилган. У йигирма йилга яқин вақт мобайнида 200 дан ортиқ ҳикоя, 20 та роман ва 3 та сахна асари ёзди. Жек Лондоннинг “Шимол Одиссеяси” туркумидаги “Аждодлар даъвати” “Оқ қозиктиши” қиссалари, “Ҳаёт қонуни”, “Ҳаётга муҳаббат” ва “Гулхан” номли ҳикоялари анча машҳур. Лондон насри аниқ ва жонли бўлиб, XX асрнинг кўплаб адиблари, хусусан, Хемингуэй, Оруэлл, Мейлер, Керуака ижодига сезиларли таъсир кўрсатган.

Эркак киши ўз вақтида хотинининг қадрига етмайди, унинг қанчалик зарурлигини яхши тушунмайди, хотини дунёдан ўтиб, бева қолгандагина хотинининг ўрни қаттиқ билинади,

шундагина унинг қадрини тушунади. У дастлаб хотинининг ўз борлиги билан ҳосил қилган меҳр тафтини сезмайди; лекин ана шу тафт кетди дегунча, эркак ҳаётида бир бўшлиқ пайдо бўлади ва шунда унга нима етишмаётганини билмай, нимадандир сиқилади, ниманидир кўмсайди. Шунда ўзидан кўра тажрибасиз, нўноқ бўлган жўралари унга шубҳа билан қараб, бош чайқайдилар ва турли-туман кучли дориларни тикиштира бошлайдилар.

Борди-ю, Юконда яшайдиган инсон ҳаётида шунга ўхшаш воқеа содир бўлса, агар ушбу ходиса ёзда юз берса, у одатда қайикни ҳозирлайди, қишда эса чанага қўшилган итларни қўшиб жануб томонга елади. Орадан бир неча ой ўтгач эса, агарда ўзи Шимолни кўмсаб, соғиниб қолгудай бўлса, эри билан ана шу совуқ ўлкага муҳаббатини, барча машаққату қийинчиликларни биргаликда баҳам кўришга тайёр рафиқаси билан қайтиб келади. Ана сизга эркакнинг туғма худбинлигига яна бир мисол! Шунда Скруф Маккензи ҳаётида юз берган воқеа беихтиёр ҳали Клондайка* олтин васвасасини ҳамда че-ча-куас* босқинини кўрмаган ва фақат лосос балиғи билан шухрат қозонган ўша олис даврларни ёдга солади.

Бир қарашда Скруф Маккензи қиёфасида бу ерларни забт этган биринчи одамни кўриш мумкин эди. Табиатнинг шафқатсиз кучлари билан узлуксиз давом этган йигирма беш йиллик кураш унинг юзига ўз тамғасини босган эди.

Кутб доирасининг кўланкаси остида олтин излаб топиш илинжида ўтказган икки йили жуда оғир кечди. Юракни зирқиратиб юборадиган бўшлиқ туйғуси Скруф вужудини эгаллаб олганида, бундан ажабланмади, негаки у кўпни кўрган одам бўлиб, ўз ҳаётида шундай оғир дардни бошдан кечирган одамларни кўрган эди. Лекин Маккензи ўзида ҳеч қандай хасталик аломатларини сезмади, фақат янада ғайрат билан ишлайверди. Бутун ёзни чивинлар билан курашиб, бо-йиб кетарман, деган ҳаёлда Стюарт дарёси этакларида қум ювиб ўтказди. Сўнгра катта-катта ёғочлардан сол ясади-да, Юконга тушиб, Қирқинчи милгача сузиб борди ва ўзига яхшигина кулба қуриб олди. Кулба шундай мустаҳкам ва бежирим чиқдики, уни Скруф билан бўлишмоқчи бўлганлар ҳам анча-мунча топилди. Бироқ Маккензи чўрткесарлик билан дангал жавоб қайтариб, уларнинг умидларини пучга чиқарди ва шу яқиндаги савдо-сотик дўконидан икки ҳисса озиқ-овқат сотиб олди.

Юқорида айтиб ўтганимиздек, Маккензи кўпни кўрган одам эди. У, одатда, кўнгли бирор нарсани хоҳлаб қолса, шунга эришмагунча тинчимас, имкон қадар аҳдида маҳкам туриб, кўзлаган мақсадидан қайтмас эди. Маккензи оғир меҳнату қийинчиликларга ўрганиб кетган, аммо ит қўшилган чаналарда олти юз миль йўл босиш, сўнгра икки миль масофани океанда сузиб ўтиш, яна ўзи илгари яшаган жойгача роса минг миль юриш, – буларнинг барини фақат ўзига рафиқа излаш учунгина бажариш кераклигини ўйласа ҳафсаласи пир бўлар эди.

У серғайрат, унча-мунча йўлни писанд қилмасди, този итлари бўлса, Юкондаги бошқа итларга қараганда озгина емак берсанг бўлди, дунёнинг нариги чеккасига бўлса ҳам кетаверарди. Уч ҳафтадан сўнг у Танананинг юқори ирмоғидаги қисмига – Стикс қабиласи қўнал-ғасига келди. Бутун қабила Маккензини кўриб, унинг журъатидан ҳайрон қолди; сабаби, стикслар оқ танлиларни ўткир болта ё яроқсиз милтиқ кўндоғи биланми ўлдириб, уларга ўз муносабатларини билдириб қўйган эди. Тағин Маккензи бу ерга ёлғиз келибди-я. Унинг юриш-туриши, ўзини эркин тутиши, совуққонлик ва хаттоки сурбетлик билан қараб туриши – ҳаммаси бир бўлиб, Маккензининг кимлигини намоён этиб турарди. Бу турли воситалардан унумли фойдаланиш учун ёввойи одам руҳиятини англаб етиш ва маҳорат талаб этиларди; Маккензи бундай ишларда пихини ёрган эди: қачон мураса қилиш ва қачон куч ишлатиб, вазиятни қандай қўлга олишни биларди. Аввало ишни мулозамат қилишдан бошлади: қабила сардори Тилинг-Тиннехга ўз эҳтиромини билдирди, бир неча фунт қора чой, тамаки билан сардорнинг хайрихоҳлигига эришди. Сўнг эса қабила йигит-қизлари билан танишди. Шу оқшом уларга зиёфат берди. Қорда узунлиги, чамаси юз фут, эни эса йигирма беш фут келадиган чўзиқ майдонча ташкил

этилди. Майдонча ўртасига гулхан ёқилди, иккала томонга қорақарағай бутуқлари тўшалди. Бутун қабила чодирлардан гала-гала бўлиб чиқиб келди ва камида юз нафар меҳмон шарафига ҳиндулар қўшиғини айтдилар.

Маккензи шу икки йил ичида ҳиндулар тилини ўрганди, шунинг-дек, уларнинг бўғзида талаффуз этадиган чуқур товушлари, япон тилига ўхшаш илмоқли иборалари-ю, ҳурматни билдирувчи сўзларини кунт билан ёдлаб олди. Энди у худди ибтидоий усулда шеър ўқиган каби ўзини эркин қўйиб, ҳиндуча нутқ ирод этди. Тилинг-Тиннех ва шомон ҳам унга илиқ муомалада бўлди. Маккензи бош-қаларга ҳам унга шундай муносабатда бўлишлари учун қабила эркакларига арзимаган совғалардан улашди, улар билан бирга қўшиқ куйлади ва ҳиндуларнинг “Эллик икки таёқ” кимор ўйинида моҳир ўйинчи сифатида ўзини яна бир бор намойиш қилди.

Шундай қилиб, ҳиндулар Маккензининг тамакисидан чекиб, роҳатланди. Бироқ унинг қабилада қозонган обрў-эътибори йигитларга ёқмаётган эди – қизлар қикир-қикир кулар, тишсиз кампирлар нималаргадир ишора қиларди. Улар кўп бўлмасалар-да, унча-мунча оқ танлиларни – Бўри Ўғилларини ўзларига баъзи сабоқларни бериб қўйишганини яхши билардилар.

Маккензи ўзини беътибор тутса-да, буни жуда теран уқди. У тунда қопқўрпа ичига кириб ётганича, барини ипидан-игнасиғача ўйлаб, режа тузиб чикди, бунинг учун трубкасида озмунча тамаки чекмади. Қабиладаги қизлар ичида унинг эътиборини тортгани қабила сардорининг қизи – Заринка эди. Қиз бошқалардан кескин ажралиб турар, юз тузилиши, келишган қадди-қомати, барнолиги билан оқ танли одамнинг гўзаллик ҳақидаги тушунчаларига мос келар эди. Маккензи Заринкани хотин қилиб олади ва отини Гертруда қўяди. Шундай қарорга келган Маккензи ўзини Самсон* дек кучли ҳис қилди-да, ёнбошига ўгирилиб, уйкуга кетди.

Бу машаққатли иш эди, унинг бу режаси вақт ва саъй-ҳаракатни талаб этарди. Маккензи ҳийла билан иш кўрди, у ўзини лоқайд, бепарво тутар ва бу билан қабиладагиларни чалғитар эди. У қабиладагиларга ўзини моҳир мерган ва уста овчи эканини кўрсатиб, уларни ҳайратда қолдиришга киришди; олти юз ярдли масофадан лос*ни ўлдириб, уларнинг мақтовларига сазовор бўлди. Кунларнинг бирида, оқшом чоғи, у қабила сардори Тилинг-Тиннехнинг лось ва буғу терисидан тикилган чодирига ташриф буюрди, унга хушомад қилди, сардорни тамаки билан сийлади. Маккензи яна фурсатни бой бермай, қабилада катта обрўга эга бўлган шомонга ҳам худди сардор каби илтифотда бўлди. Бироқ кўрсатилган илтифотдан ғазабини аранг босган шомонни ҳеч иккиланмасдан бўлғуси рақиблари сафига қўшиб қўйди.

Маккензининг Заринка билан бевосита суҳбатлашиш имкони бўлмаса-да, қизга имо-ишоралар билан ўз ниятини баён этди. Қиз ҳам унинг мақсадини жуда яхши тушунган, аммо ҳар сафар ноз-карашма билан атрофига бир тўда хотин-халажни тўплаб олар, бу пайт эркаклар йироқда бўлар, шунда Скруф Заринканинг олдига боришига имкон туғиларди. Лекин Маккензи шошилмасди, сабаби, Заринка ўзи билмаган ҳолда йигит ҳақида ўйлай бошлашини ва вақти келиб, бу ўзига ёрдам беришини биларди.

Ниҳоят, бир оқшом Маккензи кутилган вақт келганини тушуниб, тўсатдан сардорнинг тутунлар буруксиган чодиридан чикди-да, қўшни чодирга йўл олди. Заринка, одатдагидек, аёллар ва ёш қизлар қуршовида қўйлакка мунчоқ қадаб ўтирар эди. Улар Маккензини кўриб, кулиб юбордилар, Заринкага ҳазил аралаш киноя қила бошладилар. Лекин Маккензи такаллуф қилиб ўтирмасдан уларни бирин-кетин чодирдан тўғри қорга улоқтирди, аёллар бўлиб ўтган воқеадан бошқаларни бохабар этиш учун атрофга югуриб кетдилар.

Маккензи қандай мақсад уни бу ерга етаклаб келганини бағоят ишонарли қилиб, Заринканинг она тилида (унинг тилини қиз тушунмасди) баён этди ва орадан икки соат ўтгач, кетишга чоғланди. Заринка оқ танли одам чодирига яшашга боради, шундайми? Яхши! Мен ҳозир бориб отанг билан гаплашаман. Балки у қаршилиқ қилар. Мен отангга кўп совға-салом бераман, лекин у кўп нарса талаб қилмаса керак. Борди-ю, у рад этса-чи? Ўзинг гаплашиб кўрасанми? Заринка барибир оқ танли одамнинг чодирига кетади.

Маккензи эшик вазифасини ўтовчи тери пардани кўтарган ҳам эдики, қизнинг паст овозда айтган гапини эшитиб, ортга қайтишга мажбур бўлди. Заринка айиқ терисидан тўшалган ерга тиз чўкди, унинг юзидан худди Момо Ҳавонинг бокира қизлариники каби нур тараларди. Заринка тиззалаганча, Маккензининг катта овчилар пичоғи осилган белбоғини охиста ечди. Маккензи нима гаплигини тушунолмай, қизга таажжуб билан қарар экан, тик этган товушга қулоғи динг эди. Аммо бир оздан сўнг у Заринканинг мақсадини тушунди; шубҳалари тарқаб, мамнун кулди. Заринка ўзи тиккан нарсалари сақланадиган халтадан лось териси қопланган, жилоланиб турган, мунчоқлар билан безалган қинни олди. Қиз бошмалдоғини пичоқнинг ўткир тигидан эҳтиёткорлик билан юргизди-да, уни ўзи тақдим этаётган янги қинга солди. Сўнгра қинли пичоқни белбоғига тақиб, ўз жойи – белининг чап ёнига суриб қўйди.

Қаранг-а, бу манзара қадим замонлардаги сахнани эслатмайдими: хоним ва унинг баҳодир. Маккензи қизни ўрнидан турғизди ва мўйловли лабларини унинг ақиқ лабларига теккизди – бу қиз учун нотаниш, бегона эркалаш эди. Тош асри пўлат асри билан шу тарика учрашди.

Скруф Маккензи қўлтиғида каттакон тугун билан яна Тилинг-Тиннех остонасида пайдо бўлганда, атрофда унинг кайфияти каби ғайриоддий жонланиш сезиларди. Болалар елиб-югуриб қўналғаларига зиёфат учун қуруқ ўтин, шох-шаббалар ташир, аёлларнинг вағир-вуғури авжига минар, тумшайган йигитлар тўп бўлиб олганларича ниманидир гаплашар, шомон уйдан ваҳимали афсун садолари эшитилар эди.

Сардор кўзлари йиғидан қизарган хотини билан ёлғиз ўтирарди. Маккензи улар янгиликдан аллақачон хабар топганликларини дар-ҳол тушунди. Заринканинг рози бўлганини исботловчи мунчоқли қинни кўзга кўринадиган жойга суриб қўйди ва деди: – Эй, стикслар қабиласи, лось, буғу, айиқ, кийик ва Танананинг улуғ ҳукмдори бўлган Тилинг-Тиннех! Оқ танли одамни ҳузурингга буюк мақсад етаклаб келди. Кўп ойлардан буён унинг уйи бўм-бўш ва у жуда ёлғиз эди; бу ёлғизлик уни хароб қилди, унинг аёлга бўлган эҳтиёжи кучайди – аёл унинг уйида бирга ўтирсин, овдан қайтганда кутиб олсин, ўчоққа олов ёқиб, таом пиширсин. Оқ танли одамнинг кўзига ғалати нарсалар кўринди. Бир куни оқшом унинг кўз ўнгида арвоҳ кўринди, қулоғига мокасин*ларнинг тап-тупи ва болалар қий-чуви эшитилди. Арвоҳ Қарға – сенинг аждодинг, улуғ Қарға, стикслар қабиласининг сардори пайдо бўлиб, унга сўзлай бошлади: “Оёғингга мокасин кийиб ол, чанғингни тақ, чанангга кўп кунлик сафар учун егуликлар, Тилинг-Тиннехга аталган қимматбаҳо совға-саломларни жойла, чунки сен баҳор қуёши чарақлаган замин ортида яширинган томонга юзингни қаратишинг, улуғ Тилинг-Тиннех сари йўл солишинг зарур. Сен у ёққа қимматбаҳо совға-саломлар олиб борасан, кейин менинг ўғлим Тилинг-Тиннех сенга ота бўлади. Унинг чодирда бир қиз бор, мен сен учун бу қизга ҳаёт нафасини бахшида этдим. Сен бу қизни хотин қилиб оласан.” О, сардор, улуғ Қарға менга шундай деди. Мен шунинг учун ҳам ана шу ҳадяларни оёқларинг остига келтириб тўқаяпман. Ана шунинг учун ҳам мен сенинг қизингни хотин қилиб олгани келдим.

Кекса сардор қироллардек савлат билан мўйнали либосига ўралиб олди, аммо жавоб беришга шошилмади. Худди шу пайт бир болакай кириб келди ва сардорни қабил кенгашида кутаётганларини айтиб, қандай келган бўлса, шундай ғойиб бўлди.

– О, биз лослар кушандаси деб атаган, яна Бўри ва Бўри ўғли деган ном билан маълуму

машхур Оқ Танли одам! Сен бизнинг буюк қавмимиздан эканингни биламиз; меҳмонимиз бўлганидан ғурурланамиз. Кета* лососга жуфт эмас. Худди шундайми, Бўри ҳам Қар-ғага жуфт бўла олмайди.

– Нотўғри! – хитоб қилди Маккензи. – Мен Қарганинг қизларини Бўри лагерларида – Мортемир, Трежидго, Бэрнебилар билан учратдим, – уларнинг уйларига скво* икки марта муз кўчишидан илгари кириб келган. Мен гарчанд ўз кўзим билан кўрмаган бўлсам-да, бошқа шундай воқеаларни эшитганим бор.

– Ўғлим, айтганларинг рост, лекин улар яхши жуфт бўла олмайдилар, гўё кум билан сувнинг, қор парчаси билан куёшнинг жуфт бўлгани сингари. Сен Мейсон исмли одам билан унинг сквосини биласанми, йўқми? У барча Бўрилардан биринчи бўлиб, ўн марта муз кўчишидан илгари келган. Тол дарахтидек узун бўйли, гризли* айиғи каби баҳайбат, кучли, жасур бир йигит ҳам у билан бирга эди. Унинг. . .

– Бу ахир Мейлмют Кид-ку! – Маккензи Шимолга донғи кетган шахсни эслаб сардорнинг гапини бўлди.

– Ҳа, бу ўша паҳлавон. Сен бирор марта унинг сквосини кўрганмидинг? У Заринканинг туғишган опаси бўлади.

– Йўқ, сардор, мен уни кўрмаганман, лекин эшитганман. Олис Шимолда юз йиллик қарағай қариб, қулаган ва Мейсон шунинг остида қолиб ўлган. Мейсон хотинини жуда севарди, кейин унинг олтини ҳам кўп бўлган. Аёл олтинни, эридан ёдгорлик бўлиб қолган ўғлини олиб, узоқ йўлга равона бўлган, йўл юриб, йўл юрса ҳам мўл юриб, қишда ҳам куёш чарақлаб турган мамлакатга келиб қолган. . . У ҳозир ҳам ўша ерда яшармиш. У томонларда қаҳратон совуқлар бўлмасмиш, қор ҳам йўқ эмиш, ёзда ярим кечаси куёш нур сочмасмиш, қишда эса қиём вақти қоронғи ҳам тушмасмиш.

Худди шунда иккинчи чопар сардорни кенгашга чакириб, уларнинг гапини бўлди.

Маккензи уни қорга улоқтираркан, гулхан атрофида липиллаётган одамлар кўланкаларини илғади, афтидан, бу ерда қабила кенгаши бўляпти шекилли, бир маромда оҳиста куйлаган эркаклар овозларини эшитди ва шомон қабила кишилариинг ғазабини кўзғаётганини билди. У сардорга юзланди:

– Гапимга қулоқ сол, сенга ёмонлигим йўқ. Мен сенинг қизингни хотинликка олмоқчиман. Қара, мана тамаки, мана чой, катта ва яхши жун кўрпа, манави эса ҳақиқий милтиқ, яна унга кўп патрон ва кўп ўқ-дори ҳам қўшдим.

– Йўқ, – рад қилди сардор, қаршисида ёйилган катта бойликка эътибор бермасликка тиришиб. – Ҳозир бутун қабила бу никоҳни тўхтатиш учун йиғилиб ўтирибди.

– Сен ахир уларнинг сардорисан-ку!

– Тўғри, бироқ йигитларимиз каттиқ ғазабда, сабаби бўрилар уларнинг қаллиқларини тортиб олишяпти.

– Қулоқ сол, Тилинг-Тиннех! Бўри ана шу тун ўтиб, кунга айланиши билан итларини Шарқий тоғлар томон, олис Юкон томон ҳайдайди. Заринка ҳам у билан кетади.

– Балки мана шу тун яримламасданоқ менинг йигитларим Бўрининг гўштини итларга ташлар ва унинг суяги баҳор куёши кўрингуни қадар қор остида ётар.

Бу пўписага пўписа билан жавоб бериш эди. У овозини баландлатди. Шу вақтгача уларни жимгина кузатиб ўтирган сардорнинг кекса хотини эшикни тўсиб турган Маккензининг орқасидан ўтиб, чиқиб кетмоқчи бўлди. Шу пайт ташқарида эшитилаётган ашула овозлари тинди; ўрнига ҳар хил овозларнинг шовқини эшитилди. Маккензи кампирни кўполлик билан тери ўриндиққа улоқтириб юборди.

– Сендан яна бир марта сўраяпман, Тилинг-Тиннех! Бўри жағларини юмиб ўларкан, у билан бирга қабилангнинг нақ ўнта забардаст йигити ҳам абадий уйқуга кетади, эркаклар керак-ку, ахир ов эндигина бошланяпти, яна балиқ овигача унча кўп вақт қолган эмас. Айт-чи, менинг ўлимимдан сенга нима наф? Элингнинг урф-одатларини биламан: сенга

менинг бойликларимнинг озгинаси тегади. Менга қизингни берсанг, бутун бойлик фақат сеники бўлади. Сенга яна бир нарсани айтай: бу ёққа менинг биродарларим келадилар. Уларни санаб, саноғига етиб бўлмайди, улар еб тўймайдилар, кейин Қарғанинг қизлари Бўрилар маконида болалар туғадилар. Менинг қабилам сеникидан кучли. Буни тақдири азал дейдилар. Менга қизингни бер, буларнинг бари сеники бўлади.

Ташқарида мокасинлар қорда ғирчиллади. Маккензи милтиғини озод кўтарди ва белбоғидаги иккала револьвери ғилофини ечди.

– Хой, Тилинг-Тиннех, қизингни менга бер!

– Қабилам бунга кўнмайди.

– Бер, шунда мана бу бойликлар сеники бўлади. Қабиланг билан эса ўзим гаплашаман.

– Бўри хоҳлаганидек бўла қолсин. Ҳадыларингни, майли, оламан, бироқ мен сени огоҳлантирдим-а.

Маккензи унга совға-саломларни берди, ҳатто милтиқ тепкисини тушириб қўйишни ҳам унутмади, яна кўзни оладиган гулдор рўмолни ҳам қўшиб берди.

– Нарсаларингни йиғиштир! – у табриклаш ўрнига қиска буйруқ берди Заринканинг чодирни ёнидан ўта туриб, сўнг итларини чанага шоша-пиша қўша бошлади.

Орадан бир неча дақиқа ўтиб, у чанасини етаклаб, қабила кенгашида пайдо бўлди; Заринка Маккензи билан ёнма-ён келди. Маккензи тепкилаб ташланган майдончанинг юқори этагидан, сардорнинг ёнидан жой эгаллади. Заринкага ўзининг чап томонидан, бир қадам орқадан жой кўрсатди. Билиб бўладими, бирор кўнгилсизлик юз берадиган бўлса, кимдир сени орқа томондан пана қилиб туриши керак-ку. Ўнг ва сўлдан эркаклар гулхан томон эгилдилар, уларнинг овозлари қадимий, деярли унут бўлаёзган қўшиқда қўшилиб, бирлашди. Буни кўнгилга бориб тегадиган зўр қўшиқ деб бўлмасди, – қўшиқ ғалати, кутилмаганда ўзгариб қолар, бирдан жўрсиз, якка ижро жойларида тўхтаб, яна ғашга тегиб такрорланаварарди. Тўғрироғи, бу қўшиқ кишини ваҳимага солар эди. Майдонча пастида шомон олдида турган ўнлаб аёл чир айланганча рақсга тушарди. Кимда-ким маросимни сидқидилдан ижро этмаса, шомон ўша одамга қаттиқ дашном берарди. Худди қарға қанотига ўхшаб, қоп-қора сочлари қоқ белигача ёйилиб тушган хотинлар аста орқага ва олдинга чайқалар, уларнинг қоматлари тўхтовсиз ўзгариб турган оҳангга мос эгилиб-букиларди.

Бу асло замонга мувофиқ келмайдиган ғалати манзара эди. Ўн тўққизинчи аср поёнига етмоқда, унинг сўнгги ўн йилликлари ҳам ўзининг охириги йилларини кечирмоқда эди, – қаранг, бу ерда эса ибтидоий одам, тарихга доғур ғорда истиқомат қилаётган, кўланкаси олис ўтмишнинг хотирадан кўтарилган парчаси гуллаб-яшнамоқда. Катта-катта малла итлар ҳайвон терисидан либос кийган эгалари билан ёнма-ён ўтирар, қон тўла кўзлари, нам сўйлоқ тишлари гулхан ёғдусида йилтилар эди. Хира қор кўрпасига ўранган қуюқ ўрмон содир бўлаётган воқеаларга парво ҳам қилмай, донг қотиб ухлар эди. Қўналгани қуршаб олган Оппоқ сукунат гўё яна қайтадан борлиқни забт этишга тайёргарлик кўраётганга ўхшарди; юлдузлар худди Буюк Қаҳратон замонидагидек титрадилар ва кўкда рақс тушдилар, шунда Қутб Рухлари бутун уфққа ўзининг ёғду сочувчи оловли либосини ёйиб олдилар.

Скруф Маккензи ана шу манзаранинг ёввойи улуғворлигидан лол қолди. Булар орасида ким йўқ экан, дея қалдирғочдай тизилишиб турган мўйна либосли одамларни кўз қири билан кузатди. Шунда унинг кўзлари онасининг очиқ кўкрагини осойишта эмаётган чақалоққа тушди. Ҳарорат қирқ даражадан ҳам паст эди. Маккензи беихтиёр ўз халқининг нозик аёлларини эслади ва мийиғида истехзоли кулиб қўйди. Ана шундай нозик аёллардан дунёга келган, ўзи ҳамда элатдошларига жами қуруқликлару денгиз, барча ўлкалар заминидаги жониворлар ҳамда инсонлар устидан ҳукмрон бўлиш ҳуқуқи инъом этилди. У Арктика қишининг қаърида кадрдон ерлардан олисда ана шу инъом этилган мерос

хитобини –ҳукмронлик қилиш истак-иродаси, хавф-хатар, таҳликага телбаларча хирс кўйиш, жанг эҳтироси, ё ғалаба қозониш, ё ҳалок бўлиш аҳди-қарорини ҳис этди.

Кўшиқ ҳам, рақс ҳам поёнига етди, шунда шомон шиддат билан нутқ ирод этди. Шомон усталик билан ҳиндуларнинг тимсолларга бой асотиру афсоналаридан тушуниб бўлмас, чалкаш мисоллар келтириб, ишонувчан, соддадил тингловчиларни аврай бошлади. У кучли ва ишончли далиллар билан сўзлади. Тинчлик ва бунёдкорлик тимсоли бўлмиш Қарғага – тажовузкорлик ва бузғунчилик тимсоли бўлмиш Бўри – Маккензини қарши кўйди. Стикслар қабиласи – Желкснинг, Прометей оловини олиб келган Қарғанинг наслидандир; Маккензи эса– Бўри, бошқача айтганда, иблиснинг ўғли. Бу икки кучнинг азалий урушини тўхтатишга уриниш, ашаддий ғанимимизга қабиламыз қизларини хотинликка бериш –демакки, ўтакетган хоинлик, куфрдир. Энг аччиқ сўзлар, энг қабиҳ ҳақоратлар ҳам Маккензига – захарли илон, ишончимизга маккорлик билан биқиниб кириб олишга уринаётган иблис элчисига жуда мулойимлик қилади. Шунда унинг сўзларини тинглаб турган одамлар ғовур-ғувур қилдилар, дағдаға билан шовқин солдилар, шомон эса нутқида давом этди:

– Биродарларим, Желкс ҳар ишга қодир, қудратлидир! Ахир у эмасми исинишимиз учун илохий оловни олиб келган? Ахир у эмасми биз кўришимиз учун куёш, ой ва юлдузларни осмондаги инларидан чиқариб кўйган? Ахир у эмасми бизни очлик ва совуқлик руҳлари билан курашишга ўргатган? Ҳозир эса Желкс болаларидан хафа бўлди, ғазаби келди – унинг қабиласидан бир сиқим қолди, шунинг учун ҳам Желкс уларга ёрдам бера олмайди. Негаки улар Желксни унутганлар, негаки улар номаъқул иш қилмоқдалар ва чаток йўллардан юрмоқдалар, ўз чодирларига ғанимларини киритмоқдалар ва гулханлари атрофида ўтқазмоқдалар. Ахир Қарға бундан кейин ҳам ўз болаларининг бадхулқлигидан озор чекмасинми, қайғурмасинми? Бироқ унинг болалари қилган қилмишларини тушуниб етиб, Желкс сари қайтиб келсалар, шунда у зулматдан чиқиб, уларга ёрдам беради. Эй менинг қондошларим! Олов олиб келувчи ўз хоҳиш-иродасидан шомонни бохабар этди, – энди сизлар ҳам бу хабарга қулоқ тутинглар. Йигитлар қизларни ўз чодирларига олиб кирсинлар, ўзлари эса Бўрига ҳамла қилсинлар, токи уларнинг нафратлари сира сўнмасин! Шундагина хотинларимиз бола туғадилар, шунда Қарға элати кўпаяди ва қудратли бўлади! Шунда Қарға улар ота-боболарининг буюқ қабилаларини Шимолдан олиб чиқади, шунда улар Бўрилар билан курашади ва уларни кунфаякун қилади, бултурги гулхан кулига айлантиради, ўзлари эса яна бутун мамлакатга ҳукмдор бўлади. Желкс, Қарға менга шундай деди!

Стикслар яқин келажакда юз беражак халоскорлик ҳақидаги хабарни эшитгач, гувиллаб ўринларидан туриб кетдилар. Маккензи энди нима бўларкин, дея кутди. Шунда атрофни «Тулки, тулки!»– деган ҳайқириқлар тутди. Ҳайқириқлар тобора кўкка кўтарилди; ниҳоят ёш овчилардан бири олдинга чиқиб, деди:

– Биродарлар! Шомон доно гапларни айтди. Бўрилар наслимизни давом эттириши керак бўлган қизларимизни олиб кетяпти, қавмимиз эса камайиб боряпти. Орамизга Бўрилар бостириб келиб, иссиқ мўйна пўстинларимизни тортиб олишяпти, ўрнига шишадаги ёвуз руҳларни, кундуз ё силовсин терисидан эмас, ўтдан тикилган кийимларни ташлаб кетишяпти. Албатта, бу кийимлар иссиқ бермайди, кейин одамларимиз тушунарсиз дардлардан кирилиб кетишяпти. Мана, мен – Тулкининг хотини йўқ. Нега дейсизми? Мен икки марта қиз ёқтирдим. Менга ёққан қизлар икки мартасида ҳам Бўрининг қўноғига кетиб қолди. Мен зора Заринкани берармикан, зора Тилинг-Тиннех эътиборига тушармикинман, деб кундуз, лось, буғу терисини олиб кўйгандим. Мана, ҳозир Заринка Бўри билан кетишга тайёр, унинг итларини йўлга чорлашга ҳозирлик кўряпти. Мен фақат ўзимни гапирмаяпман. Айиқ ҳам худди мен ҳозир айтган гапларни айтиши мумкин. У ҳам Заринка туғажак болаларнинг отаси бўлишни истайди, у ҳам худди мендай Тилинг-Тиннехга бераман деб озмунча териларни асраб кўйдими. Мен бу гапларни ҳамма бўйдоқ

овчи йигитлар номидан гапиряпман. Бўрилар ҳеч қачон тўймаган. Улар ҳамиша оч. Улар доим ёғли-ёғлиларини сайлаб олади. Биз бечора Қарғаларга эса еб бўлмайдиган саркитлар қолади.

– Мана, қаранг, манави Гуклани! – Тулки андиша қилиб ўтирмай аёллардан бирига қўлини ниқтади; ўша хотин оқсоқ эди. – Қаранг, Гукланинг оёқларини, худди қайиқнинг ёни, бўксаси қинғир-қийшиқ. Гукла, кўриб турибсиз, ўтин йиғолмайди, шох-шабба йиғолмайди, овчи отиб туширган илвасинни ҳам олиб келолмайди. Уни Бўрилар олармидилар?

– Йўқ! йўқ! – дея қабиладошлари қичқириб хитоб қилдилар.

– Мана Мойри, – сўзида давом этди у. – Ёвуз рух унинг кўзларини ғилай қилиб қўйган. Ҳаттоки чақалоқлар ҳам уни кўрса кўрқиб кетармиш, Айиқ ҳам унга йўл бўшатиб беради. Уни-чи, Бўрилар танлаб олармидилар?

Яна оломон гувиллаганча унинг гапларини маъқуллади.

– Мана, бу ерда Писчет ҳам ўтирибди. У менинг гапларимни эшитмайди. Писчет ҳеч қачон хандон-хушон суҳбатларни эшитмаган, эрининг овозини ҳам, ўз гўдаги гувранишини ҳам эшитолмайди. У оппоқ сукунатда яшайди.

Бўрилар ақалли бир марта бўлса-да, унга эътибор қаратдимми? Йўқ! Уларга сара-саралари, бизга бўлса саркитлар қолади.

Биродарлар, иш бундай кетавериши асло мумкин эмас! Ўчоғимиз олдига бошқа келмаслиги учун бўриларни даф қилишимиз лозим!

Шимол ёғдусининг улкан оловли қаноти қирмизи, яшил, сариқ аланга бўлиб, ёрқин кўкнинг у чеккасидан-бу чеккасигача ёйилиб ловуллади. Шунда Тулки бошини орқага ташлади ва қўлларини осмонга кўтарганича, наъра тортди:

– Қаранглар! Ота-боболаримизнинг руҳлари оёққа турди! Мана шу тун буюк воқеалар содир бўлажак!

У орқага чекинди, шунда унинг турткиси билан бир овчи журъатсизгина олдинга чиқди. У бошқалардан бўйи баландроқ, кенг кўкраги худди совуқ билан ўчакишгандай очиқ эди. Йигит ўнғайсизланиб, оғирлигини у оёғидан-бу оёғига солар, тили калимага келмасди. У тортинчоқ, одамови эди. Унинг юзига қараган киши кўрқиб кетарди: афтидан, қандайдир бир махлуқ уриб абжағини чиқарганга ўхшарди. Ниҳоят у худди дўмбирани чалгандай, кўкрагига мушти билан урди ва сўнг гап бошлади; овози гўё уммон бўйидаги ғорга тўлқинлар келиб урилгандаги каби бўғиқ эшитилди.

– Мен – Кумуш Найза авлодиданман, Кумуш Найзанинг ўғли – Айиқман. Ҳамиша жарангдор овозим билан силовсин, лось ва кийик овладим; овозим сувсар тузоққа тушиб хайқиргани сингари янграганида Жанубий тоғларни кесиб ўтдим ва Оқ дарё қабиласидан уч кишини у дунёга жўнатдим; чинук ўқириги сингари ўқирганида бахайбат гризлига йўлиқдим –мен айиққа йўл бермадим.

У кафти билан юзидаги даҳшатли чандиқларини силаганича тўхтаб қолди. Сўнг гапида давом этди:

– Мен Тулки эмасман. Тилим худди дарё каби музлаб қолган. Мен чиройли гапира олмайман, сўзга нўноқман. Тулки: «Шу тунда буюк воқеалар содир бўлади», деди. Худди баҳор тошқинида дарё тўлиб-тошганидай унинг сўзлари оғзидан тошиб чиқаверади, лекин у амалда бундай саховатли эмас. Мен бугун оқшом Бўри билан олишмоқчиман. Мен унинг жонини оламан ва Заринка менинг хонадонимда ўтиради. Мен, Айиқ, ўз сўзимни айтдим.

Атрофда чинакам қиёмат кўпди, бироқ Маккензи жойидан қимир этмади. Милтиқни шундай яқин масофада отиш бефойдалигини яхши тушунган ҳолда у револьверларини ишга солиш учун шайланди – белбоғидагиларни киши билмас олдинга суриб қўйди, кейин қўлқопларини бармоқлари учларигача туширди. Агар унга ҳаммаси бирданга ҳамла

қилса, ҳеч нима қила олмаслигини биларди. Яқиндагина ўзи «Бўрилар шунчаки ўлмайдилар», деб мақтанган эди, шу гапига содиқ қолиб, жағлари билан ғанимининг бўғзидан олганча жон беришга шай турди. Лекин Айиқ қондошларини тўхтатиб қолди, энг қизиққон, жиззакиларини даҳшатли мушт билан орқага ирғитиб юборди. Тўфон тинди, Маккензи Заринкага кўз қирини ташлади, бу фавкулудда ажойиб манзара эди. Қиз чанғида турганча, бутун вужуди билан олдинга интилди, лаблари сал очилди, бурун катаклари пир-пир қилди – унинг бу туриши худди урғочи йўлбарснинг сакрашдан олдинги ҳолатини эслатарди. Қиз қабиладошларига қараб турар, унинг қора кўзларида ҳам кўркув, ҳам норозилик ифодаси зоҳир эди. Унинг бутун борлиғи худди камон ипи сингари таранг тортилганидан, ҳатто нафас олишни ҳам унутди. Қиз азбаройи безовта бўлиб бир кўлини кўксига босганича, иккинчисида узун қамчисини қисганича қотиб қолди. Аммо Маккензи унга қараши билан Заринка ўзига келди. Қизнинг таранг тортилган мушаклари бўшашди, чуқур нафас олди, қақдини ростлади ва Маккензига бениҳоя меҳр-садоқат тўла нигоҳлари билан жавоб қайтарди.

Бир пайт Тилинг-Тиннех гапиришга уринди, аммо оломоннинг ҳайқириғи унинг овозини босиб кетди. Шунда Маккензи ўртага чиқди. Тулки сўзлаш учун оғиз жуфтлади-ю, бироқ шу он орқасига тисланди, кучли фарёд томоғига тикилди – Маккензи унга бемисл ғазаб, таҳдид билан ўгирилди. Тулкининг мағлубияти қаттиқ қаҳқаҳа билан қарши олинди. – Биродарларим! – дея сўз бошлади Маккензи. – Сиз Бўри деб атаган оқ танли одам сизларнинг хузурингизга очиқ кўнгил билан келди. У эскимосларга ўхшаб алдамайди. У хузурингизга дўст бўлишни истаб келди. Бироқ йигитларингиз кўнгилларидагини айтдилар, энди дўстона гапларга ўрин қолмади. Энди гапимга қулоқ солинглар: аввало, сизларнинг шомонингиз ёвуз одам экан, у ёлғондан башорат қилар экан, у сизларга айтган истак-ирода – бу Олов Келтирувчининг хоҳиш-иродаси, ҳукми эмас. Қарғанинг овозини эшитиш учун унинг қулоқлари карлик қилади, шомон ичидан ғаразли гапларни тўқиб чиқариб, ҳаммангизни лақиллатди. У ҳеч қандай илоҳий кучга эга эмас. Сизлар ўз итларингизни ўлдириб, гўштини ейишга мажбур бўлганингизда, мокасин еб хом теридан қорнингиз оғриганида, чоллар ўлганида, кампирлар жон берганида, онасининг кўкрагига сут келмай, чақалоқлар нобуд бўлганида; ерларингизни зулмат қоплаганида ва худди музда лосось қирилганидай бари жонивор қирилиб-битганида; очлик-қаҳатчилик сизларга хужум қилганида – шу шомонингиз бирор ёрдам бердими ёки овчиларга омад кулиб бокдими? Ёки у қорнингизни гўшт билан сийлаб, тўйдирдими? Яна қайтариб айтаман: шомоннинг ҳеч қандай илоҳий кучи йўқ. Мана мен ҳозир унинг юзига тупураман!

Ҳамма Маккензининг шомондай муқаддас зотга тил теккиз-ганидан, уни таҳқирлаганидан ҳайратдан лол бўлиб қолди, лекин ҳеч ким чурқ этмади. Баъзи аёлларнинг ўтақаси ёрилиб, кўркиб кетди. Эркаклар эса юраги така-пука бўлиб, энди қандай мўъжиза юз бераркин, дея кутиб турдилар. Ҳамманинг нигоҳи шомон ва Мак-кензига қаратилган эди. Шомон ҳал қилувчи дақиқалар етиб келганлигини англаб етди. Энди вазият жиловни қўлдан кетаётганини ҳис қилди ва шунда дўқ-пўписа қилиб, лаънатлар ўқишга шайланди-ю, бирдан фикридан қайтди. Маккензи муштумини дўлайтирди ва қаҳр ила чақнаган кўзлари билан унга томон қадам босди. Шомон истехзоли ишшайиб, ортига тисарилди. – Нима, шомонни ҳақорат қилганим учун менга бало ёпирилдими? Мени яшин урдими? Ёки осмондан юлдуз тушиб, ҳалок қилдими? Туф-ей! Мен бу ит билан ҳисоб-китоб қилиб бўлдим. Энди мен сизларга бутун ер юзида, жамики ўлкаларда ҳукмдорлик қилаётган қудратлилардан қудратли бўлган ўз қабилам ҳақида айтиб берай. Аввалига биз якка-якка, бир ўзимиз ов қиламиз. Сўнг гала-гала бўлиб ов қиламиз ва ниҳоят худди буғулар тўдаси каби бутун ўлкани тўлдириб юборамиз. Биз ўз чодирларимизга киритганларимизгина омон қолади, қолганларини ўлим кутади. Заринка чиройли, бақувват қиз, у Бўриларга яхши она бўла олади. Сизлар ҳозир мени ўлдиришингиз мумкин, лекин Заринка барибир Бўриларга она бўлади, негаки менинг биродарларим сон-саноксиз, улар итларимнинг изларини олиб бу ерга келади. Мана, Бўри Қонунига қулоқ тутинг: агарда кимда-ким

битта Бўрининг жонини олса, қабиланглардан ўн кишининг жони кетади. Мана шундай товон пулини кўп ўлкаларда тўладилар, хали яна кўп ерларда тўлайдилар.

Энди мен Тулки ва Айиқ билан гаплашиб олмоқчиман. Заринка уларнинг ҳам дидига ўтирган, бу шундоқ кўриниб турибди. Шундайми? Лекин ўзингиз бир қаранг – ахир мен Заринкани сотиб олдим-ку! Ана, Тилинг-Тиннех мен берган милтиққа суяниб турибди, яна қиз учун бошқа нарсалар ҳам бердимки, улар сардор хонадонида турибди. Шундай бўлса-да, мен барибир ёш овчиларга адолат қилмоқчиман. Узундан-узоқ ваъз қилиб, томоғи қуриб қолган Тулкига бешта катта қутида тамаки бермоқчиман. Майли, шу билан оғзи яна мойланиб, йиғинларда ҳовридан тушгунча шовкин солаверсин. Айиққа эса, – мен у билан танишганимдан фахрланаман, – унга иккита адёл, йигирма финжон ун, Тулкиниқидан икки баравар зиёд тамаки бераман; агарда мен билан бирга Шарқий тоғларга кетадиган бўлса, унга худди Тилинг-Тиннехниқига ўхшаш милтиқ ҳам бераман. Агар у бунга рози бўлмаса-чи? Жуда яхши! Бўри гапириб чарчади. Лекин у яна бир марта ўз Қонунини такрорлайди: агарда кимда-ким битта Бўрининг жонига қасд қиладиган бўлса, қабилаларингдан ўн кишининг ёстиғи қурийд.

Маккензи илжайиб, илгариги жойига қайтди, лекин унинг кўнгли нотинч эди. Тун пардаси хали кўтарилмаганди. Қиз Маккензининг ёнига келиб турди, Айиқ пичоқ билан уришганда қандай ҳийла қилишини айтиб берди, Маккензи унинг гапларига диққат билан кулоқ солди.

Шундай қилиб, улар – Маккензи билан Айиқ Заринка учун жанг қиладиган бўлдилар. Кўз очиб юмгунча ўнларча мокасин гулхан атрофидаги тепкиланган майдончани кенгайтди. Ҳамманинг кўз ўнгида шомоннинг мағлубияти ҳақида қизгин баҳс кетмоқда эди; баъзилар у ўз кучини кўрсатади хали, деб ишонтирмоқчи бўлса, баъзилари ўтган воқеаларни эслаб, Бўрининг фикрларига қўшилди. Айиқ майдончага чиқди, унинг қўлида руслар ишлаган қинсиз овчилар пичоғи бор эди. Тулки ҳамманинг диққатини Маккензининг револьверларига қаратди, у бўлса белбоғини ечиб ишониши мумкин бўлган ягона инсон – Заринкага тақиб қўйди ва қизга милтиғини берди. Қиз отишни билмайман, деган маънода бошини чайқади: бундай қимматбаҳо қуролни ишлатишни у бечора қаёқдан ҳам билсин. – Агар хатар орқа томондан келадиган бўлса, “Менинг эрим!” деб бақир. Йўқ, мана бундай: «Менинг эрим!»

Қиз нотаниш инглизча сўзни такрорлаганида Маккензи кулиб юборди-да, унинг юзларидан чимчилаб қўйди ва ўзи ўртага бориб турди. Айиқ Маккензидан фақат бўйи билан эмас, балки қўлидаги пичоғи билан устун эди. Пичоқ нақ икки дюйм*га узун эди. Скруф Маккензи илгарилари ҳам ғанимининг кўзларига қарашига тўғри келганди, ҳозир қаршисида ҳақиқий жасур эркак турганини англади; бироқ у пўлат пичоқлар ялтиллаши билан бирдан жонланди ва аждодлари даъватига итоат этган томирларида оқаётган қон янада тезлашди.

Ғаними қайта-қайта уни гоҳ гулханга, гоҳ қалин қорга улоқтирарди, бироқ Маккензи ҳам худди моҳир боксчи сингари қайта майдон ўртасига сиқиб келарди. Ҳеч ким ёнига тушиб, унга мадад бўладиган бирор оғиз сўз айтмади, рақибини бўлса олқишлар билан руҳини кўтардилар, сергаклантирдилар, эҳтиёт бўл, дея огоҳлантирдилар. Бироқ Маккензи пичоқларнинг тиглари бир-бирига тегиб, жаранг-журунг этганида фақат тишларини қаттиқроқ қисди. Шунда у ўз имкониятларини ҳисобга олиб, шошилмай пайт пойлади, Айиққа ташланди, хавф яқин келганда, чекинди. Дастлаб Маккензи беихтиёр душманини аяди, лекин омон қолиш, жонини сақлаш туйғуси Айиқни ўлдиришга ундай бошлади. Ўн минг йиллик тамаддун туйғуси қалбидан худди арчилган қобик сингари сидирилиб тушди ва у бир аёл зоти учун уришиб жанг қиладиган оддийгина ғорда яшайдиган ибтидоий одамга айланди-қолди.

У Айиққа пичоқ билан икки марта хужум қилди ва ўзининг бирор жойига тиг тегизмай,

чап бера олди; лекин учинчи марта – ўзига зарба беришидан эҳтиёт бўлиш учун айикнинг қурол ушланган қўлини сиқиб туширмоқчи бўлди. Шунда Маккензи ғанимининг кишини даҳшатга соладиган кучини ҳис қилди. Ғаними сиқиб турган мушаклари зиркиради, пайлари, бўғинлари зўриққанидан мана, ҳозир ёрилиб кетадиганга ўхшаб туюлди... рус пўлатининг тиғи эса тобора яқинроқ келмоқда эди... У рақибининг чангалидан озод бўлишга уринди, бироқ бу ҳаракати бесамар кетди. Мўйнали одамлар қуршови янада жипслашиб бораверди, – сўнгги зарба яқин қолганига ҳеч ким шубҳа қилмаётган, улар бу томошани кўришга сабрлари чидамаётган эди. Шунда Маккензи уста жангчидай усул қўллади, ўзини чеккага олиб қочди-да, рақибига калла қўйди. Айик ноилож орқасига тисарилди, мувозанатини йўқотди. Маккензи зудликда бу фурсатдан фойдаланди ва бутун оғирлигини унга ташлади, уни томошабинлар халқасидан нарига, босилмаган қалин қорга ирғитиб юборди. Айик аранг ердан турди-да, яна Маккензига ташланди.
– Эй, менинг эрим! – хатар яқинлашиб келаётганини билдириб, Заринканинг овози янгради.

Шу пайт камоннинг таранг тортилиб, “шув” этган овози эшитилди, Маккензи қочиб қолишга улгурди, – поянаги суякдан ясалган найза улар устидан учиб, тўғри Айикнинг кўксига бориб қадалди, у рақибни устига гуп этиб йиқилди. Маккензи зумда ўрнидан туриб кетди. Айик танасида жон асари йўқ, қимир этмай ётар, гулханнинг бошқа томонида шомон иккинчи найзани отишга ҳозирлик кўрмоқда эди.
Маккензи буни кўрди, дарҳол пичоғини олиб, тиғ томони учидан тутди ва ўша тарафга отди. Пичоқ яшиндай ялтираб, гулхан устидан учиб ўтди. У нақ сопиғача шомоннинг бўғзига қадалди, шомон гандираклаб-гандираклаб, ланғиллаб турган чўғлар устига йиқилди.

Атрофни қийқирик тутди – Тулки Тилинг-Тиннехнинг милтиғини қўлига олволиб, унга патрон жойлашга уринди, лекин эплай олмади, шунда Скруфнинг қаҳ-қаҳ уриб кулганини эшитиб, қуролни қўлидан тушириб юборди.
– Демак, Тулки мана бу ўйинчокни қандай ишлатишни ҳалиям ўрганиб олмабди-да?
Демак, Тулки ҳалигача ожиз экан-да. Буёққа кел! Милтиқни бер, сенга ўзим отишни ўргатиб қўяман.

Тулки иккиланди.
– Бери кел деяпман сенга!

Тулки тепки еган кучукдек бўшашиб, унга яқин келди.
– Мана, қара, мана бундай қиласан, бўлди.

Маккензи патронни ўз жойига жойлади, тепкини «шак» эткизиб қўйди, милтиқни елкасига осди.
– Тулки бу тун буюк воқеалар содир бўлади, деган эди, унинг гапи тўғри чикди. Чиндан буюк воқеалар содир бўлди, лекин уларни Тулки содир этмади. Нима, у ҳалиям Заринкани ўз чодирига олиб кетмоқчимми? У ҳам шомон билан Айикнинг изидан юрмоқчимми? Ундай эмасми? Яхши!

Маккензи нафрат билан юзини ўгириб, шомоннинг бўғзидан пичоғини суғуриб олди.
– Эҳтимол, ёш овчилар ичида шундай қилувчилар топилиб қолар? Агар улар яна курашмоқчи бўлсалар, Бўри уларни ҳам битта қўймай ўша ёққа жўнатади. Хоҳлайдиганлар йўқми? Яхши. Тилинг-Тиннех, мен, мана, иккинчи марта милтиқни сенга беряпман. Агар қачонки Юкон томонларга борадиган бўлсанг, Бўрининг эшиги сен учун очик, у сенга уйидан жой беради ва тўқин-сочин дастурхонни сен билан баҳам кўради. Ана тун ҳам кунга ўтиб боряпти. Мен кетаман, балки яна келиб ҳам қоларман, яна сўнгги бор сўзимни қайтараман: Бўри Қонунини ёдда тутинг!

У Заринканинг ёнига келди, стикслар эса Маккензига бир мўъжизавий мавжудотга қарагандай қарадилар. Заринка чана олдидаги ўзига аталган жойни эгаллади ва итлар йўлга равона бўлди. Орадан бирор дақиқа ўтгач, улар қорли ғира-шира ўрмонга сингиб кетдилар. Шундагина қимир этмай турган Маккензи ҳам чанғига оёқ қўйди ва уларнинг изидан кетишга ҳозирланди.

– Нахотки Бўри бешта қатта қути тамакини ташлаб кетишни унутган бўлса?

Маккензи ғазаб билан Тулкига ўгирилди, негадир бирдан кулгиси қистади.

– Мен сенга битта кичкина қутида тамаки берман.

– Бўри барибир Бўрилигини қилди-да,– деди секингина Тулки қўлини чўзиб.

* *К л о н д а й к* – Юкон дарёсининг ирмоғи; 1896 йилда у ерда кўндан-кўп олтин сочмалари топилган.

* *Ч е - ч а - к у а с* – янги келганлар.

* *С а м с о н* – “Библия” даги фавқулудда кучли қаҳрамон.

* *Л о с ь* – буғулар оиласига мансуб бутоқ шохли ҳайвон.

* *М о к а с и н* – ҳиндилар оёқ кийими.

* *К е т а* – балиқ тури.

* *С к в о* – Шимолий Америка ҳиндилари тилида: аёл.

* *Г р и з л и* – Американинг шимоли зарбида яшовчи жигарранг улкан айиқ тури.

* *Т о т е м* – бирор жонивор, ўсимлик ёки диний мансублиги белгиси бўлмиш табиатнинг қандайдир унсури тасвири туширилган қабила рамзи.

* *Д ю й м* – узунлик ўлчови, 25,5 мм.

Манба: “Жаҳон адабиёти” журнали, 2010 йил, 12-сон.



Jek London BO'RI O'G'LI

Asliyatdan Gulhayo Mahamadaliyeva tarjimasida

Amerikalik taniqli yozuvchi, publitsist, jamoat arbobi, mashhur hikoyalari va romanlar muallifi Jek London 1876 yilning 12 yanvarida San-Frantsiskoda tug'ilgan. U yigirma yilga yaqin vaqt mobaynida 200 dan ortiq hikoya, 20 ta roman va 3 ta sahna asari yozdi. Jek Londonning "Shimol Odisseyasi" turkumidagi "Ajdodlar da'vati" "Oq qoziqtish" qissalari, "Hayot qonuni", "Hayotga muhabbat" va "Gulxan" nomli hikoyalari ancha mashhur. London nasri aniq va jonli bo'lib, XX asrning ko'plab adiblari, xususan, Xeminguey, Oruell, Meyler, Keruaka ijodiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Erkak kishi o'z vaqtida xotining qadriga yetmaydi, uning qanchalik zarurligini yaxshi tushunmaydi, xotini dunyodan o'tib, beva qolgandagina xotining o'rnini qattiq biladi, shundagina uning qadrini tushunadi. U dastlab xotining o'z borligi bilan hosil qilgan mehr taftini sezmaydi; lekin ana shu taft ketdi deguncha, erkak hayotida bir bo'shliq paydo bo'ladi va shunda unga nima yetishmayotganini bilmay, nimadandir siqiladi, nimanidir qo'msaydi. Shunda o'zidan ko'ra tajribasiz, no'noq bo'lgan jo'ralari unga shubha bilan qarab, bosh chayqaydilar va turli-tuman kuchli dorilarni tiqishtira boshlaydilar.

Bordi-yu, Yukonda yashaydigan inson hayotida shunga o'xshash voqea sodir bo'lsa, agar ushbu hodisa yozda yuz bersa, u odatda qayiqni hozirlaydi, qishda esa chanaga qo'shilgan itlarni qo'shib janub tomonga yeladi. Oradan bir necha oy o'tgach esa, agarda o'zi Shimolni qo'msab, sog'inib qolguday bo'lsa, eri bilan ana shu sovuq o'lkaga muhabbatini, barcha mashaqqatu qiyinchiliklarni birgalikda baham ko'rishga tayyor rafiqasi bilan qaytib keladi. Ana sizga erkakning tug'ma xudbinligiga yana bir misol! Shunda Skruf Makkenzi hayotida yuz bergan voqea beixtiyor hali Klondayk* oltin vasvasasini hamda che-cha-kuas* bosqinini ko'rmagan va faqat losos balig'i bilan shuhrat qozongan o'sha olis davrlarni yodga soladi.

Bir qarashda Skruf Makkenzi qiyofasida bu yerlarni zabt etgan birinchi odamni ko'rish mumkin edi. Tabiatning shafqatsiz kuchlari bilan uzluksiz davom etgan yigirma besh yillik kurash uning yuziga o'z tamg'asini bosgan edi.

Qutb doirasining ko'lankasi ostida oltin izlab topish ilinjida o'tkazgan ikki yili juda og'ir kechdi. Yurakni zirqiraytib yuboradigan bo'shliq tuyg'usi Skruf vujudini egallab olganida, bundan ajablanmadi, negaki u ko'pni ko'rgan odam bo'lib, o'z hayotida shunday og'ir dardni boshdan kechirgan odamlarni ko'rgan edi. Lekin Makkenzi o'zida hech qanday xastalik alomatlarini sezmadik, faqat yanada g'ayrat bilan ishlayverdi. Butun yozni chivinlar bilan kurashib, bo'yib ketarman, degan xayolda Styuart daryosi etaklarida qum yuvib o'tkazdi. So'ngra katta-katta yog'ochlardan sol yasadi-da, Yukonga tushib, Qirqinchi milgacha suzib bordi va o'ziga yaxshigina kulba qurib oldi. Kulba shunday mustahkam va bejirim chiqdiki, uni Skruf bilan bo'lishmoqchi bo'lganlar ham ancha-muncha topildi. Biroq Makkenzi cho'rtkesarlik bilan dangal javob qaytarib, ularning umidlarini puchga chiqardi va shu yaqindagi savdo-sotiq do'konidan ikki hissa oziq-ovqat sotib oldi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Makkenzi ko'pni ko'rgan odam edi. U, odatda, ko'ngli biror narsani xohlab qolsa, shunga erishmaguncha tinchimas, imkon qadar ahdida mahkam turib, ko'zlagan maqsadidan qaytmas edi. Makkenzi og'ir mehnatu qiyinchiliklarga o'rganib ketgan, ammo it qo'shilgan chanalarda olti yuz mil yo'l bosish, so'ngra ikki mil masofani okeanda suzib o'tish, yana o'zi ilgari yashagan joygacha rosa ming mil yurish, – bularning barini faqat o'ziga rafiqasi izlash uchunгина bajarish kerakligini o'ylasa hafsalasi pir bo'lar edi.

U serg'ayrat, uncha-muncha yo'lni pisand qilmasdi, tozi itlari bo'lsa, Yukondagi boshqa itlarga

qaraganda ozgina yemak bersang bo'ldi, dunyoning narigi chekkasiga bo'lsa ham ketaverardi. Uch haftadan so'ng u Tanananing yuqori irmog'idagi qismiga – Stiks qabilasi qo'nal-g'asiga keldi. Butun qabila Makkenzini ko'rib, uning jur'atidan hayron qoldi; sababi, stikslar oq tanlilarni o'tkir bolta yo yaroqsiz miltiq qo'ndog'i bilanmi o'ldirib, ularga o'z munosabatlarini bildirib qo'ygan edi. Tag'in Makkenzi bu yerga yolg'iz kelibdi-ya. Uning yurish-turishi, o'zini erkin tutishi, sovuqqonlik va hattoki surbetlik bilan qarab turishi – hammasi bir bo'lib, Makkenzining kimligini namoyon etib turardi. Bu turli vositalardan unumli foydalanish uchun yovvoyi odam ruhiyatini anglab yetish va mahorat talab etilardi; Makkenzi bunday ishlarda pixini yorgan edi: qachon murosa qilish va qachon kuch ishlatib, vaziyatni qanday qo'lga olishni bilardi. Avvalo ishni mulozamat qilishdan boshladi: qabila sardori Tiling-Tinnexga o'z ehtiromini bildirdi, bir necha funt qora choy, tamaki bilan sardorning xayrixohligiga erishdi. So'ng esa qabila yigit-qizlari bilan tanishdi. Shu oqshom ularga ziyofat berdi. Qorda uzunligi, chamasi yuz fut, eni esa yigirma besh fut keladigan cho'ziq maydoncha tashkil etildi. Maydoncha o'rtasiga gulxan yoqildi, ikkala tomonga qoraqarag'ay butoqlari to'shaldi. Butun qabila chodirlardan gala-gala bo'lib chiqib keldi va kamida yuz nafar mehmon sharafiga hindular qo'shig'ini aytdilar.

Makkenzi shu ikki yil ichida hindular tilini o'rgandi, shuning-dek, ularning bo'g'zida talaffuz etadigan chuqur tovushlari, yapon tiliga o'xshash ilmoqli iboralari-yu, hurmatni bildiruvchi so'zlarini qunt bilan yodlab oldi. Endi u xuddi ibtidoiy usulda she'r o'qigan kabi o'zini erkin qo'yib, hinducha nutq irod etdi. Tiling-Tinnex va shomon ham unga iliqli muomalada bo'ldi. Makkenzi bosh-qalarga ham unga shunday munosabatda bo'lishlari uchun qabila erkaklariga arzimagan sovg'alardan ulashdi, ular bilan birga qo'shiq kuyladi va hindularning "Ellik ikki tayoq" qimor o'yinida mohir o'yinchi sifatida o'zini yana bir bor namoyish qildi.

Shunday qilib, hindular Makkenzining tamakisidan chekib, rohatlandi. Biroq uning qabilada qozongan obro'-e'tibori yigitlarga yoqmayotgan edi – qizlar qiqir-qiqir kular, tishsiz kampirlar nimalargadir ishora qilardi. Ular ko'p bo'lmasalar-da, uncha-muncha oq tanlilarni – Bo'ri O'g'illarini o'zlariga ba'zi saboqlarni berib qo'yishganini yaxshi bilardilar.

Makkenzi o'zini bee'tibor tutsa-da, buni juda teran uqdi. U tunda qopko'rpa ichiga kirib yotganicha, barini ipidan-ignasigacha o'ylab, reja tuzib chiqdi, buning uchun trubkasida ozmuncha tamaki chekmadi. Qabiladagi qizlar ichida uning e'tiborini tortgani qabila sardorining qizi – Zarinka edi. Qiz boshqalardan keskin ajralib turar, yuz tuzilishi, kelishgan qaddi-qomati, barnoligi bilan oq tanli odamning go'zallik haqidagi tushunchalariga mos kelar edi. Makkenzi Zarinkani xotin qilib oladi va otini Gertruda qo'yadi. Shunday qarorga kelgan Makkenzi o'zini Samson* dek kuchli his qildi-da, yonboshiga o'girilib, uyquga ketdi.

Bu mashaqqatli ish edi, uning bu rejasi vaqt va sa'y-harakatni talab etardi. Makkenzi hiyla bilan ish ko'rdi, u o'zini loqayd, beparvo tutar va bu bilan qabiladagilarni chalg'itar edi. U qabiladagilarga o'zini mohir mergan va usta ovchi ekanini ko'rsatib, ularni hayratda qoldirishga kirishdi; olti yuz yardli masofadan los*ni o'ldirib, ularning maqtoovlariga sazovor bo'ldi.

Kunlarning birida, oqshom chog'i, u qabila sardori Tiling-Tinnexning los va bug'u terisidan tikilgan chodiriga tashrif buyurdi, unga xushomad qildi, sardorni tamaki bilan siyladi. Makkenzi yana fursatni boy bermay, qabilada katta obro'ga ega bo'lgan shomonga ham xuddi sardor kabi iltifotda bo'ldi. Biroq ko'rsatilgan iltifotdan g'azabini arang bosgan shomonni hech ikkilanmasdan bo'lg'usi raqiblari safiga qo'shib qo'ydi.

Makkenzining Zarinka bilan bevosita suhbatlashish imkoni bo'lmasa-da, qizga imo-ishoralar bilan o'z niyatini bayon etdi. Qiz ham uning maqsadini juda yaxshi tushungan, ammo har safar noz-karashma bilan atrofiga bir to'da xotin-xalajni to'plab olar, bu payt erkaklar yiroqda bo'lar, shunda Skruf Zarinkaning oldiga borishiga imkon tug'ilardi. Lekin Makkenzi shoshilmasdi, sababi, Zarinka o'zi bilmagan holda yigit haqida o'ylay boshlashini va vaqti kelib, bu o'ziga yordam berishini bilardi.

Nihoyat, bir oqshom Makkenzi kutilgan vaqt kelganini tushunib, to'satdan sardorning tutunlar buruqsigan chodiridan chiqdi-da, qo'shni chodirga yo'l oldi. Zarinka, odatdagidek, ayollar va yosh qizlar qurshovida ko'ylakka munchoq qadab o'tirar edi. Ular Makkenzini ko'rib, kulib

yubordilar, Zarinkaga hazil aralash kinoya qila boshladilar. Lekin Makkenzi takalluf qilib o'tirmasdan ularni birin-ketin chodirdan to'g'ri qorga uloqtirdi, ayollar bo'lib o'tgan voqeadan boshqalarni boxabar etish uchun atrofga yugurib ketdilar.

Makkenzi qanday maqsad uni bu yerga yetaklab kelganini bag'oyat ishonarli qilib, Zarinkaning ona tilida (uning tilini qiz tushunmasdi) bayon etdi va oradan ikki soat o'tgach, ketishga chog'landi. Zarinka oq tanli odam chodiriga yashashga boradi, shundaymi? Yaxshi! Men hozir borib otang bilan gaplashaman. Balki u qarshilik qilar. Men otangga ko'p sovg'a-salom beraman, lekin u ko'p narsa talab qilmasa kerak. Bordi-yu, u rad etsa-chi? O'zing gaplashib ko'rasanmi? Zarinka baribir oq tanli odamning chodiriga ketadi.

Makkenzi eshik vazifasini o'tovchi teri pardani ko'targan ham ediki, qizning past ovozda aytgan gapini eshitib, ortga qaytishga majbur bo'ldi. Zarinka ayiq terisidan to'shalgan yerga tiz cho'kdi, uning yuzidan xuddi Momo Havoning bokira qizlariniki kabi nur taralardi. Zarinka tizzalagancha, Makkenzining katta ovchilar pichog'i osilgan belbog'ini ohista yechdi. Makkenzi nima gapligini tushunolmay, qizga taajjub bilan qarar ekan, tiq etgan tovushga qulog'i ding edi. Ammo bir ozdan so'ng u Zarinkaning maqsadini tushundi; shubhalari tarqab, mamnun kuldi. Zarinka o'zi tikkan narsalari saqlanadigan xaltadan los terisi qoplangan, jilolanib turgan, munchoqlar bilan bezalgan qinni oldi. Qiz boshmaldog'ini pichoqning o'tkir tig'idan ehtiyotkorlik bilan yurgizdi-da, uni o'zi taqdim etayotgan yangi qinga soldi. So'ngra qinli pichoqni belbog'iga taqib, o'z joyi – belining chap yoniga surib qo'ydi.

Qarang-a, bu manzara qadim zamonlardagi sahnani eslatmaydimi: xonim va uning bahodiri. Makkenzi qizni o'rnidan turg'izdi va mo'ylovli lablarini uning aqiq lablariga tekkizdi – bu qiz uchun notanish, begona erkalash edi. Tosh asri po'lat asri bilan shu tariqa uchrashdi.

Skruf Makkenzi qo'ltig'ida kattakon tugun bilan yana Tiling-Tinnex ostonasida paydo bo'lganda, atrofda uning kayfiyati kabi g'ayrioddiy jonlanish sezilardi. Bolalar yelib-yugurib qo'nalg'alariga ziyofat uchun quruq o'tin, shox-shabbalar tashir, ayollarning vag'ir-vug'uri avjiga minar, tumshaygan yigitlar to'p bo'lib olganlaricha nimanidir gaplashar, shomon uyidan vahimali afsun sadolari eshitilar edi.

Sardor ko'zlari yig'idan qizargan xotini bilan yolg'iz o'tirardi. Makkenzi ular yangilikdan allaqachon xabar topganliklarini dar-hol tushundi. Zarinkaning rozi bo'lganini isbotlovchi munchoqli qinni ko'zga ko'rinadigan joyga surib qo'ydi va dedi:

– Ey, stikslar qabilasi, los, bug'u, ayiq, kiyik va Tanananing ulug' hukmdori bo'lgan Tiling-Tinnex! Oq tanli odamni huzuringga buyuk maqsad yetaklab keldi. Ko'p oylardan buyon uning uyi bo'm-bo'sh va u juda yolg'iz edi; bu yolg'izlik uni xarob qildi, uning ayolga bo'lgan ehtiyoji kuchaydi – ayol uning uyida birga o'tirsin, ovdan qaytganda kutib olsin, o'choqqa olov yoqib, taom pishirsin. Oq tanli odamning ko'ziga g'alati narsalar ko'rindi. Bir kuni oqshom uning ko'z o'ngida arvoq ko'rindi, qulog'iga mokasin*larning tap-tupi va bolalar qiy-chuvi eshitildi. Arvoq Qarg'a – sening ajdoding, ulug' Qarg'a, stikslar qabilasining sardori paydo bo'lib, unga so'zlay boshladi: “Oyog'ingga mokasin kiyib ol, chang'ingni taq, chanangga ko'p kunlik safar uchun yeguliklar, Tiling-Tinnexga atalgan qimmatbaho sovg'a-salomlarni joyla, chunki sen bahor quyoshi charaqlagan zamin ortida yashiringan tomonga yuzingni qaratishing, ulug' Tiling-Tinnex sari yo'l solishing zarur. Sen u yoqqa qimmatbaho sovg'a-salomlar olib borasan, keyin mening o'g'lim Tiling-Tinnex senga ota bo'ladi. Uning chodirida bir qiz bor, men sen uchun bu qizga hayot nafasini baxshida etdim. Sen bu qizni xotin qilib olasan.” O, sardor, ulug' Qarg'a menga shunday dedi. Men shuning uchun ham ana shu hadyalarni oyoqlaring ostiga keltirib to'kayapman. Ana shuning uchun ham men sening qizingni xotin qilib olgani keldim.

Keksa sardor qirollardek savlat bilan mo'ynali libosiga o'ralib oldi, ammo javob berishga shoshilmadi. Xuddi shu payt bir bolakay kirib keldi va sardorni qabila kengashida kutayotganlarini aytib, qanday kelgan bo'lsa, shunday g'oyib bo'ldi.

– O, biz loslar kushandasi deb atagan, yana Bo'ri va Bo'ri o'g'li degan nom bilan ma'lumu mashhur Oq Tanli odam! Sen bizning buyuk qavmimizdan ekaningni bilamiz; mehmonimiz bo'lganingdan g'ururlanamiz. Keta* lososga juft emas. Xuddi shundaymi, Bo'ri ham Qar-g'aga juft bo'la olmaydi.

– Noto‘g‘ri! – xitob qildi Makkenzi. – Men Qarg‘aning qizlarini Bo‘ri lagerlarida – Mortemir, Trejido, Bernebilar bilan uchratdim, – ularning uylariga skvo* ikki marta muz ko‘chishidan ilgari kirib kelgan. Men garchand o‘z ko‘zim bilan ko‘rmagan bo‘lsam-da, boshqa shunday voqealarni eshitganim bor.

– O‘g‘lim, aytganlaring rost, lekin ular yaxshi juft bo‘la olmaydilar, go‘yo qum bilan suvning, qor parchasi bilan quyoshning juft bo‘lgani singari. Sen Meyson ismli odam bilan uning skvosini bilasanmi, yo‘qmi? U barcha Bo‘rilardan birinchi bo‘lib, o‘n marta muz ko‘chishidan ilgari kelgan. Tol daraxtidek uzun bo‘yli, grizli* ayig‘i kabi bahaybat, kuchli, jasur bir yigit ham u bilan birga edi. Uning. . .

– Bu axir Meylmyut Kid-ku! – Makkenzi Shimolga dong‘i ketgan shaxsni eslab sardorning gapini bo‘ldi.

– Ha, bu o‘sha pahlavon. Sen biror marta uning skvosini ko‘rganmiding? U Zarinkaning tug‘ishgan opasi bo‘ladi.

– Yo‘q, sardor, men uni ko‘rmaganman, lekin eshitganman. O‘lis Shimolda yuz yillik qarag‘ay qarib, qulagan va Meyson shuning ostida qolib o‘lgan. Meyson xotinini juda sevardi, keyin uning oltini ham ko‘p bo‘lgan. Ayol oltinni, eridan yodgorlik bo‘lib qolgan o‘g‘lini olib, uzoq yo‘lga ravona bo‘lgan, yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, qishda ham quyosh charaqlab turgan mamlakatga kelib qolgan. . . U hozir ham o‘sha yerda yasharmish. U tomonlarda qahraton sovuqlar bo‘lmasmish, qor ham yo‘q emish, yozda yarim kechasi quyosh nur sochmasmish, qishda esa qiyom vaqti qorong‘i ham tushmasmish.

Xuddi shunda ikkinchi chopar sardorni kengashga chaqirib, ularning gapini bo‘ldi. Makkenzi uni qorga uloqtirarkan, gulxan atrofida lipillayotgan odamlar ko‘lankalarini ilg‘adi, aftidan, bu yerda qabila kengashi bo‘lyapti shekilli, bir maromda ohista kuylagan erkaklar ovozlarini eshitdi va shomon qabila kishilarining g‘azabini qo‘zg‘ayotganini bildi. U sardorga yuzlandi:

– Gapimga quloq sol, senga yomonligim yo‘q. Men sening qizingni xotinlikka olmoqchiman.

Qara, mana tamaki, mana choy, katta va yaxshi jun ko‘rpa, manavi esa haqiqiy miltiq, yana unga ko‘p patron va ko‘p o‘q-dori ham qo‘shdim.

– Yo‘q, – rad qildi sardor, qarshisida yoyilgan katta boylikka e‘tibor bermaslikka tirishib. – Hozir butun qabila bu nikohni to‘xtatish uchun yig‘ilib o‘tiribdi.

– Sen axir ularning sardorisan-ku!

– To‘g‘ri, biroq yigitlarimiz qattiq g‘azabda, sababi bo‘rilar ularning qalliqlarini tortib olishayapti.

– Quloq sol, Tiling-Tinnex! Bo‘ri ana shu tun o‘tib, kunga aylanishi bilan itlarini Sharqiy tog‘lar tomon, o‘lis Yukon tomon haydaydi. Zarinka ham u bilan ketadi.

– Balki mana shu tun yarimlamasdanoq mening yigitlarim Bo‘rining go‘shini itlarga tashlar va uning suyagi bahor quyoshi ko‘ringuni qadar qor ostida yotar.

Bu po‘pisaga po‘pisa bilan javob berish edi. U ovozini balandlatdi. Shu vaqtgacha ularni jimgina kuzatib o‘tirgan sardorning keksa xotini eshikni to‘sib turgan Makkenzining orqasidan o‘tib, chiqib ketmoqchi bo‘ldi. Shu payt tashqarida eshitilayotgan ashula ovozlari tindi; o‘rniga har xil ovozlarning shovqini eshitildi. Makkenzi kampirni qo‘pollik bilan teri o‘rindiqqa uloqtirib yubordi.

– Sendan yana bir marta so‘rayapman, Tiling-Tinnex! Bo‘ri jag‘larini yumib o‘larkan, u bilan birga qabilangning naq o‘nta zabardast yigiti ham abadiy uyquga ketadi, erkaklar kerak-ku, axir ov endigina boshlanyapti, yana baliq ovigacha uncha ko‘p vaqt qolgan emas. Ayt-chi, mening o‘limimdan senga nima naf? Elingning urf-odatlarini bilaman: senga mening boyliklarimning ozginasi tegadi. Menga qizingni bersang, butun boylik faqat seniki bo‘ladi. Senga yana bir narsani aytay: bu yoqqa mening birodarlarim keladilar. Ularni sanab, sanog‘iga yetib bo‘lmaydi, ular yeb to‘ymaydilar, keyin Qarg‘aning qizlari Bo‘rilar makonida bolalar tug‘adilar. Mening qabilam senikidan kuchli. Buni taqdiri azal deydilar. Menga qizingni ber, bularning bari seniki bo‘ladi.

Tashqarida mokasinlar qorda g‘irchilladi. Makkenzi miltig‘ini ozod ko‘tardi va belbog‘idagi ikkala revolveri g‘ilofini yechdi.

- Hoy, Tiling-Tinnex, qizingni menga ber!
- Qabilam bunga ko‘nmaydi.
- Ber, shunda mana bu boyliklar seniki bo‘ladi. Qabilang bilan esa o‘zim gaplashaman.
- Bo‘ri xohlaganidek bo‘la qolsin. Hadyalaringni, mayli, olaman, biroq men seni ogohlantirdim-a.

Makkenzi unga sovg‘a-salomlarni berdi, hatto miltiq tepkisini tushirib qo‘yishni ham unutmadi, yana ko‘zni oladigan guldor ro‘molni ham qo‘shib berdi.

– Narsalaringni yig‘ishtir! – u tabriklash o‘rniga qisqa buyruq berdi Zarinkaning chodiri yonidan o‘ta turib, so‘ng itlarini chanaga shosha-pisha qo‘sha boshladi.

Oradan bir necha daqiqa o‘tib, u chanasini yetaklab, qabila kengashida paydo bo‘ldi; Zarinka Makkenzi bilan yonma-yon keldi. Makkenzi tepkilab tashlangan maydonchani yuqori etagidan, sardorning yonidan joy egalladi. Zarinkaga o‘zining chap tomonidan, bir qadam orqadan joy ko‘rsatdi. Bilib bo‘ladimi, biror ko‘ngilsizlik yuz beradigan bo‘lsa, kimdir seni orqa tomondan pana qilib turishi kerak-ku. O‘ng va so‘ldan erkaklar gulxan tomon egildilar, ularning ovozlari qadimiy, deyarli unut bo‘layozgan qo‘shiqda qo‘shilib, birlashdi. Buni ko‘ngilga borib tegadigan zo‘r qo‘shiq deb bo‘lmasdi, – qo‘shiq g‘alati, kutilmaganda o‘zgarib qolar, birdan jo‘rsiz, yakka ijro joylarida to‘xtab, yana g‘ashga tegib takrorlanaverardi. To‘g‘rirog‘i, bu qo‘shiq kishini vahimaga solar edi. Maydoncha pastida shomon oldida turgan o‘nlab ayol chir aylangancha raqsqa tushardi. Kimda-kim marosimni sidqidildan ijro etmasa, shomon o‘sha odamga qattiq dashnom berardi. Huddi qarg‘a qanotiga o‘xshab, qop-qora sochlari qoq beligacha yoyilib tushgan xotinlar asta orqaga va oldinga chayqalar, ularning qomatlari to‘xtovsiz o‘zgarib turgan ohangga mos egilib-bukilardi.

Bu aslo zamonga muvofiq kelmaydigan g‘alati manzara edi. O‘n to‘qqizinchi asr poyoniga yetmoqda, uning so‘nggi o‘n yilliklari ham o‘zining oxirgi yillarini kechirmoqda edi, – qarang, bu yerda esa ibtidoiy odam, tarixga dovur g‘orda istiqomat qilayotgan, ko‘lankasi olis o‘tmishning xotiradan ko‘tarilgan parchasi gullab-yashnamoqda. Katta-katta malla itlar hayvon terisidan libos kiygan egalari bilan yonma-yon o‘tirar, qon to‘la ko‘zlari, nam so‘yloq tishlari gulxan yog‘dusida yiltillar edi. Xira qor ko‘rpasiga o‘rangan quyuk o‘rmon sodir bo‘layotgan voqealarga parvo ham qilmay, dong qotib uxlar edi. Qo‘nalg‘ani qurshab olgan Oppoq sukunat go‘yo yana qaytadan borliqni zabt etishga tayyorgarlik ko‘rayotganga o‘xshardi; yulduzlar xuddi Buyuk Qahraton zamonidagidek titradilar va ko‘kda raqs tushdilar, shunda Qutb Ruhlarini butun ufqqa o‘zining yog‘du sochuvchi olovli libosini yoyib oldilar.

Skruf Makkenzi ana shu manzaraning yovvoyi ulug‘vorligidan lol qoldi. Bular orasida kim yo‘q ekan, deya qaldirg‘ochday tizilishib turgan mo‘yna libosli odamlarni ko‘z qiri bilan kuzatdi.

Shunda uning ko‘zlari onasining ochiq ko‘kragini osoyishta emayotgan chaqaloqqa tushdi. Harorat qirq darajadan ham past edi. Makkenzi beixtiyor o‘z xalqining nozik ayollarini esladi va miyig‘ida istehzoli kulib qo‘ydi. Ana shunday nozik ayollardan dunyoga kelgan, o‘zi hamda elatdoshlariga jami quruqliklaru dengiz, barcha o‘lkalar zaminidagi jonivorlar hamda insonlar ustidan hukmron bo‘lish huquqi in‘om etildi. U Arktika qishining qa‘rida qadrdon yerlardan olisda ana shu in‘om etilgan meros xitobini –hukmronlik qilish istak-irodasi, xavf-xatar, tahlikaga telbalaricha hirs qo‘yish, jang ehtirosi, yo g‘alaba qozonish, yo halok bo‘lish ahdi-qarorini his etdi.

Qo‘shiq ham, raqs ham poyoniga yetdi, shunda shomon shiddat bilan nutq irod etdi. Shomon ustalik bilan hindularning timsollarga boy asotiru afsonalaridan tushunib bo‘lmas, chalkash misollar keltirib, ishonuvchan, soddadil tinglovchilarni avray boshladi. U kuchli va ishonchli dalillar bilan so‘zladi. Tinchlik va bunyodkorlik timsoli bo‘lmish Qarg‘aga – tajovuzkorlik va buzg‘unchilik timsoli bo‘lmish Bo‘ri – Makkenzini qarshi qo‘ydi. Stiklar qabilasi – Jelksning, Prometey olovini olib kelgan Qarg‘aning naslidandir; Makkenzi esa– Bo‘ri, boshqacha aytganda, iblisning o‘g‘li. Bu ikki kuchning azaliy urushini to‘xtatishga urinish, ashaddiy g‘animimizga qabilamiz qizlarini xotinlikka berish –demakki, o‘taketgan xoinlik, kufrdir. Eng achchiq so‘zlar, eng qabih haqoratlar ham Makkenziga – zaharli ilon, ishonchimizga makkorlik bilan biqinib kirib olishga urinayotgan iblis elchisiga juda muloyimlik qiladi. Shunda uning so‘zlarini tinglab

turgan odamlar g'ovur-g'uvur qildilar, dag'dag'a bilan shovqin soldilar, shomon esa nutqida davom etdi:

– Birodarlarim, Jelks har ishga qodir, qudratlidir! Axir u emasmi isinishimiz uchun ilohiy olovni olib kelgan? Axir u emasmi biz ko'rishimiz uchun quyosh, oy va yulduzlarni osmondagi inlaridan chiqarib qo'ygan? Axir u emasmi bizni ochlik va sovuqlik ruhlari bilan kurashishga o'rgatgan? Hozir esa Jelks bolalaridan xafa bo'ldi, g'azabi keldi – uning qabilasidan bir siqim qoldi, shuning uchun ham Jelks ularga yordam bera olmaydi. Negaki ular Jelksni unutganlar, negaki ular noma'qul ish qilmoqdalar va chatoq yo'llardan yurmoqdalar, o'z chodirlariga g'animlarini kiritmoqdalar va gulxanlari atrofida o'tqazmoqdalar. Axir Qarg'a bundan keyin ham o'z bolalarining badxulqligidan ozor chekmasinmi, qayg'urmasinmi? Biroq uning bolalari qilgan qilmishlarini tushunib yetib, Jelks sari qaytib kelsalar, shunda u zulmatdan chiqib, ularga yordam beradi. Ey mening qondoshlarim! Olov olib keluvchi o'z xohish-irodasidan shomonni boxabar etdi, – endi sizlar ham bu xabarga quloq tutinglar. Yigitlar qizlarni o'z chodirlariga olib kirsinar, o'zlari esa Bo'riga hamla qilsinar, toki ularning nafratlari sira so'nmasin! Shundagina xotinlarimiz bola tug'adilar, shunda Qarg'a elati ko'payadi va qudratli bo'ladi! Shunda Qarg'a ular ota-bobolarining buyuk qabilalarini Shimoldan olib chiqadi, shunda ular Bo'rilar bilan kurashadi va ularni kunfayakun qiladi, bulturgi gulxan kuliga aylantiradi, o'zlari esa yana butun mamlakatga hukmdor bo'ladi. Jelks, Qarg'a menga shunday dedi!

Stikslar yaqin kelajakda yuz berajak xaloskorlik haqidagi xabarni eshitgach, guvillab o'rinlaridan turib ketdilar. Makkenzi endi nima bo'larkin, deya kutdi. Shunda atrofni «Tulki, tulki!»– degan hayqiriqlar tutdi. Hayqiriqlar tobora ko'kka ko'tarildi; nihoyat yosh ovchilardan biri oldinga chiqib, dedi:

– Birodarlar! Shomon dono gaplarni aytdi. Bo'rilar naslimizni davom ettirishi kerak bo'lgan qizlarimizni olib ketyapti, qavmimiz esa kamayib boryapti. Oramizga Bo'rilar bostirib kelib, issiq mo'yna po'stinlarimizni tortib olishayapti, o'rniga shishadagi yovuz ruhlarni, qunduz yo silovsin terisidan emas, o'tdan tikilgan kiyimlarni tashlab ketishyapti. Albatta, bu kiyimlar issiq bermaydi, keyin odamlarimiz tushunarsiz dardlardan qirilib ketishyapti. Mana, men – Tulkining xotini yo'q. Nega deysizmi? Men ikki marta qiz yoqtirdim. Menga yoqqan kizlar ikki martasida ham Bo'rining qo'nog'iga ketib qoldi. Men zora Zarinkani berarmikan, zora Tiling-Tinnex e'tiboriga tusharmikinman, deb qunduz, los, bug'u terisini olib qo'ygandim. Mana, hozir Zarinka Bo'ri bilan ketishga tayyor, uning itlarini yo'lga chorlashga hozirlik ko'ryapti. Men faqat o'zimni gapirmayapman. Ayiq ham xuddi men hozir aytgan gaplarni aytishi mumkin. U ham Zarinka tug'ajak bolalarning otasi bo'lishni istaydi, u ham xuddi menday Tiling-Tinnexga beraman deb ozmuncha terilarni asrab qo'ydimi. Men bu gaplarni hamma bo'ydoq ovchi yigitlar nomidan gapiryapman. Bo'rilar hech qachon to'yman. Ular hamisha och. Ular doim yog'lil-yog'lilarini saylab oladi. Biz bechora Qarg'alarga esa yeb bo'lmaydigan sarqitlar qoladi.

– Mana, qarang, manavi Guklani! – Tulki andisha qilib o'tirmay ayollardan biriga qo'lini niqtadi; o'sha xotin oqsoq edi. – Qarang, Guklaning oyoqlarini, xuddi qayiqning yoni, bo'ksasi qing'ir-qiyshiq. Gukla, ko'rib turibsiz, o'tin yig'olmaydi, shox-shabba yig'olmaydi, ovchi otib tushirgan ilvasinni ham olib kelolmaydi. Uni Bo'rilar olarmidilar?

– Yo'q! yo'q! – deya qabiladoshlari qichqirib xitob qildilar.

– Mana Moyri, – so'zida davom etdi u. – Yovuz ruh uning ko'zlarini g'ilay qilib qo'ygan. Hattoki chaqaloqlar ham uni ko'rsa qo'rqib ketarmish, Ayiq ham unga yo'l bo'shatib beradi. Uni-chi, Bo'rilar tanlab olarmidilar?

Yana olomon guvillagancha uning gaplarini ma'qulladi.

– Mana, bu yerda Pischet ham o'tiribdi. U mening gaplarimni eshitmaydi. Pischet hech qachon xandon-xushon suhbatlarni eshitmagan, erining ovozi ham, o'z go'dagi guvranishini ham eshitolmaydi. U oppoq sukunatda yashaydi. Bo'rilar aqalli bir marta bo'lsa-da, unga e'tibor qaratdimi? Yo'q! Ularga sara-saralari, bizga bo'lsa sarqitlar qoladi.

Birodarlar, ish bunday ketaverishi aslo mumkin emas! O'chog'imiz oldiga boshqa kelmasligi uchun bo'rilar daf qilishimiz lozim!

Shimol yog'dusining ulkan olovli qanoti qirmizi, yashil, sariq alanga bo'lib, yorqin ko'kning u

chekkasidan-bu chekkasigacha yoyilib lovulladi. Shunda Tulki boshini orqaga tashladi va qo‘llarini osmonga ko‘targanicha, na‘ra tortdi:

– Qaranglar! Ota-bobolarimizning ruhlari oyoqqa turdi! Mana shu tun buyuk voqealar sodir bo‘lajak!

U orqaga chekindi, shunda uning turtkisi bilan bir ovchi jur‘atsizgina oldinga chiqdi. U boshqalardan bo‘yi balandroq, keng ko‘kragi xuddi sovuq bilan o‘chakishganday ochiq edi. Yigit o‘ng‘aysizlanib, og‘irligini u oyog‘idan-bu oyog‘iga solar, tili kalimaga kelmasdi. U tortinchoq, odamovi edi. Uning yuziga qaragan kishi qo‘rqib ketardi: aftidan, qandaydir bir maxluq urib abjag‘ini chiqarganga o‘xshardi. Nihoyat u xuddi do‘mbirani chalganday, ko‘kragiga mushti bilan urdi va so‘ng gap boshladi; ovozi go‘yo ummon bo‘yidagi g‘orga to‘lqinlar kelib urilgandagi kabi bo‘g‘iq eshitildi.

– Men – Kumush Nayza avlodidanman, Kumush Nayzaning o‘g‘li – Ayiqman. Hamisha jarangdor ovozim bilan silovsin, los va kiyik ovladim; ovozim suvsar tuzoqqa tushib hayqirgani singari yangraganida Janubiy tog‘larni kesib o‘tdim va Oq daryo qabilasidan uch kishini u dunyoga jo‘natdim; chinuk o‘kirigi singari o‘kirganida bahaybat grizliga yo‘liqdim –men ayiqqa yo‘l bermadim.

U kafti bilan yuzidagi dahshatli chandiqlarini silaganicha to‘xtab qoldi. So‘ng gapida davom etdi:

– Men Tulki emasman. Tilim xuddi daryo kabi muzlab qolgan. Men chiroyli gapira olmayman, so‘zga no‘noqman. Tulki: «Shu tunda buyuk voqealar sodir bo‘ladi», dedi. Xuddi bahor toshqinida daryo to‘lib-toshganiday uning so‘zlari og‘zidan toshib chiqaveradi, lekin u amalda bunday saxovatli emas. Men bugun oqshom Bo‘ri bilan olishmoqchiman. Men uning jonini olaman va Zarinka mening xonadonimda o‘tiradi. Men, Ayiq, o‘z so‘zimni aytdim.

Atrofdagi chinakam qiyomat qo‘pdi, biroq Makkenzi joyidan qimir etmadi. Miltiqni shunday yaqin masofada otish befoydaligini yaxshi tushungan holda u revolverlarini ishga solish uchun shaylandi – belbog‘idagilarni kishi bilmas oldinga surib qo‘ydi, keyin qo‘lqoplarini barmoqlari uchlarigacha tushirdi. Agar unga hammasi birdaniga hamla qilsa, hech nima qila olmasligini bildi. Yaqindagina o‘zi «Bo‘rilar shunchaki o‘lmaydilar», deb maqtangan edi, shu gapiga sodiq qolib, jag‘lari bilan g‘animining bo‘g‘zidan olgancha jon berishga shay turdi. Lekin Ayiq qondoshlarini to‘xtatib qoldi, eng qiziqqon, jizzakilarini dahshatli musht bilan orqaga irg‘itib yubordi. To‘fon tindi, Makkenzi Zarinkaga qo‘z qirini tashladi, bu favqulodda ajoyib manzara edi. Qiz chang‘ida turgancha, butun vujudi bilan oldinga intildi, lablari sal ochildi, burun kataklari pir-pir qildi – uning bu turishi xuddi urg‘ochi yo‘lbarsning sakrashdan oldingi holatini eslatardi. Qiz qabiladoshlariga qarab turar, uning qora ko‘zlarida ham qo‘rquv, ham norozilik ifodasi zohir edi. Uning butun borlig‘i xuddi kamon ipi singari tarang tortilganidan, hatto nafas olishni ham unutdi. Qiz azbaroyi bezovta bo‘lib bir qo‘lini ko‘ksiga bosganicha, ikkinchisida uzun qamchisini qisganicha qotib qoldi. Ammo Makkenzi unga qarashi bilan Zarinka o‘ziga keldi. Qizning tarang tortilgan mushaklari bo‘shashdi, chuqur nafas oldi, qaddini rostladi va Makkenziga benihoya mehr-sadoqat to‘la nigohlari bilan javob qaytardi.

Bir payt Tiling-Tinnex gapirishga urindi, ammo olomonning hayqirig‘i uning ovozini bosib ketdi. Shunda Makkenzi o‘rtaga chiqdi. Tulki so‘zlash uchun og‘iz juftladi-yu, biroq shu on orqasiga tislandi, kuchli faryod tomog‘iga tiqildi – Makkenzi unga bemisl g‘azab, tahdid bilan o‘girildi. Tulkining mag‘lubiyati qattiq kahqaha bilan qarshi olindi.

– Birodarlarim! – deya so‘z boshladi Makkenzi. – Siz Bo‘ri deb atagan oq tanli odam sizlarning huzuringizga ochiq ko‘ngil bilan keldi. U eskimoslarga o‘xshab aldamaydi. U huzuringizga do‘st bo‘lishni istab keldi. Biroq yigitlaringiz ko‘ngillaridagini aytdilar, endi do‘stona gaplarga o‘rin qolmadi. Endi gapimga quloq solinglar: avvalo, sizlarning shomonigiz yovuz odam ekan, u yolg‘ondan bashorat qilar ekan, u sizlarga aytgan istak-iroda – bu Olov Keltiruvchining xohish-irodasi, hukmi emas. Qarg‘aning ovozini eshitish uchun uning quloqlari karlik qiladi, shomon ichidan g‘arazli gaplarni to‘qib chiqarib, hammangizni laqillatdi. U hech qanday ilohiy kuchga ega emas. Sizlar o‘z itlaringizni o‘ldirib, go‘stini yeyishga majbur bo‘lganingizda, mokasin yeb xom teridan qorningiz og‘riganida, chollar o‘lganida, kampirlar jon berganida, onasining

ko'kragiga sut kelmay, chaqaloqlar nobud bo'lganida; yerlaringizni zulmat qoplaganida va xuddi muzda losos qirilganiday bari jonivor qirilib-bitganida; ochlik-qahatchilik sizlarga hujum qilganida – shu shomoningiz biror yordam berdimi yoki ovchilarga omad kulib boqdimi? Yoki u qorningizni go'sht bilan siylab, to'ydirdimi? Yana qaytarib aytaman: shomonning hech qanday ilohiy kuchi yo'q. Mana men hozir uning yuziga tupuraman!

Hamma Makkenzining shomonday muqaddas zotga til tekkiz-ganidan, uni tahqirlaganidan hayratdan lol bo'lib qoldi, lekin hech kim churq etmadi. Ba'zi ayollarning o'takasi yorilib, qo'rqib ketdi. Erkaklar esa yuragi taka-puka bo'lib, endi qanday mo'jiza yuz berarkin, deya kutib turdilar. Hammaning nigohi shomon va Mak-kenziga qaratilgan edi. Shomon hal qiluvchi daqiqalar yetib kelganligini anglab yetdi. Endi vaziyat jilovi qo'ldan ketayotganini his qildi va shunda do'q-po'pisa qilib, la'natlar o'qishga shaylandi-yu, birdan fikridan qaytdi. Makkenzi mushtumini do'laytirdi va qahr ila chaqnagan ko'zlari bilan unga tomon qadam bosdi. Shomon istehzoli ishshayib, ortiga tisarildi.

– Nima, shomonni haqorat qilganim uchun menga balo yopirildimi? Meni yashin urdimi? Yoki osmondan yulduz tushib, halok qildimi? Tuf-ey! Men bu it bilan hisob-kitob qilib bo'ldim. Endi men sizlarga butun yer yuzida, jamiki o'lkalarda hukmdorlik qilayotgan qudratlilardan qudratli bo'lgan o'z qabilam haqida aytib beray. Avvaliga biz yakka-yakka, bir o'zimiz ov qilamiz.

So'ng gala-gala bo'lib ov qilamiz va nihoyat xuddi bug'ular to'dasi kabi butun o'lkani to'ldirib yuboramiz. Biz o'z chodirlarimizga kiritganlarimizgina omon qoladi, qolganlarini o'lim kutadi.

Zarinka chiroyli, baquvvat qiz, u Bo'rilarga yaxshi ona bo'la oladi. Sizlar hozir meni o'ldirishingiz mumkin, lekin Zarinka baribir Bo'rilarga ona bo'ladi, negaki mening birodarlarim son-sanoqsiz, ular itlarimning izlarini olib bu yerga keladi. Mana, Bo'ri Qonuniga quloq tuting: agarda kimda-kim bitta Bo'rining jonini olsa, qabilanglardan o'n kishining joni ketadi. Mana shunday tovon pulini ko'p o'lkalarda to'ladi, hali yana ko'p yerlarda to'laydilar.

Endi men Tulki va Ayiq bilan gaplashib olmoqchiman. Zarinka ularning ham didiga o'tirgan, bu shundoq ko'rinib turibdi. Shundaymi? Lekin o'zingiz bir qarang – axir men Zarinkani sotib oldim-ku! Ana, Tiling-Tinnex men bergan miltiqqa suyanib turibdi, yana qiz uchun boshqa narsalar ham berdimki, ular sardor xonadonida turibdi. Shunday bo'lsa-da, men baribir yosh ovchilarga adolat qilmoqchiman. Uzundan-uzoq va'z qilib, tomog'i qurib qolgan Tulkiga beshta katta qutida tamaki bermoqchiman. Mayli, shu bilan og'zi yana moylanib, yig'inlarda hovridan tushguncha shovqin solaversin. Ayiqqa esa, – men u bilan tanishganimdan faxrlanaman, – unga ikkita adyol, yigirma finjon un, Tulkidikidan ikki baravar ziyod tamaki beraman; agarda men bilan birga Sharqiy tog'larga ketadigan bo'lsa, unga xuddi Tiling-Tinnexnikiga o'xshash miltiq ham beraman. Agar u bunga rozi bo'lmasa-chi? Juda yaxshi! Bo'ri gapirib charchadi. Lekin u yana bir marta o'z Qonunini takrorlaydi: agarda kimda-kim bitta Bo'rining joniga qasd qiladigan bo'lsa, qabilalaringdan o'n kishining yostig'i quriydi.

Makkenzi iljayib, ilgarigi joyiga qaytdi, lekin uning ko'ngli notinch edi. Tun pardasi hali ko'tarilmagandi. Qiz Makkenzining yoniga kelib turdi, Ayiq pichoq bilan urishganda qanday hiyla qilishini aytib berdi, Makkenzi uning gaplariga diqqat bilan quloq soldi.

Shunday qilib, ular – Makkenzi bilan Ayiq Zarinka uchun jang qiladigan bo'ldilar. Ko'z ochib yumguncha o'nlaracha mokasin gulxan atrofidagi tepkilangan maydonchani kengaytirdi.

Hammaning ko'z o'ngida shomonning mag'lubiyati haqida qizg'in bahs ketmoqda edi; ba'zilar u o'z kuchini ko'rsatadi hali, deb ishontirmoqchi bo'lsa, ba'zilar o'tgan voqealarni eslab, Bo'rining fikrlariga qo'shildilar. Ayiq maydonchaga chiqdi, uning qo'lida ruslar ishlagan qinsiz ovchilar pichog'i bor edi. Tulki hammaning diqqatini Makkenzining revolverlariga qaratdi, u bo'lsa belbog'ini yechib ishonishi mumkin bo'lgan yagona inson – Zarinkaga taqib qo'ydi va qizga miltig'ini berdi. Qiz otishni bilmayman, degan ma'noda boshini chayqadi: bunday qimmatbaho qurolni ishlatishni u bechora qayoqdan ham bilsin.

– Agar xatar orqa tomondan keladigan bo'lsa, “Mening erim!” deb baqir. Yo'q, mana bunday: «Mening erim!»

Qiz notanish inglizcha so'zni takrorlaganida Makkenzi kulib yubordi-da, uning yuzlaridan chimchilab qo'ydi va o'zi o'rtaga borib turdi. Ayiq Makkenzidan faqat bo'yi bilan emas, balki

qo‘lidagi pichog‘i bilan ustun edi. Pichoq naq ikki dyuym*ga uzun edi. Skruf Makkenzi ilgarilari ham g‘animining ko‘zlariga qarashiga to‘g‘ri kelgandi, hozir qarshisida haqiqiy jasur erkak turganini angladi; biroq u po‘lat pichoqlar yaltillashi bilan birdan jonlandi va ajdodlari da‘vatiga itoat etgan tomirlarida oqayotgan qon yanada tezlashdi.

G‘animi qayta-qayta uni goh gulxanga, goh qalin qorga uloqtirardi, biroq Makkenzi ham xuddi mohir bokschi singari qayta maydon o‘rtasiga siqib kelardi. Hech kim yoniga tushib, unga madad bo‘ladigan biror og‘iz so‘z aytmadi, raqibini bo‘lsa olqishlar bilan ruhini ko‘tardilar, sergaklantirdilar, ehtiyot bo‘l, deya ogohlantirdilar. Biroq Makkenzi pichoqlarning tig‘lari bir-biriga tegib, jarang-jurung etganida faqat tishlarini qattiqroq qisdi. Shunda u o‘z imkoniyatlarini hisobga olib, shoshilmay payt poyladi, Ayiqqa tashlandi, xavf yaqin kelganda, chekindi. Dastlab Makkenzi beixtiyor dushmanini ayadi, lekin omon qolish, jonini saqlash tuyg‘usi Ayiqni o‘ldirishga unday boshladi. O‘n ming yillik tamaddun tuyg‘usi qalbidan xuddi archilgan qobiq singari sidirilib tushdi va u bir ayol zoti uchun urishib jang qiladigan oddiygina g‘orda yashaydigan ibtidoiy odamga aylandi-qoldi.

U Ayiqqa pichoq bilan ikki marta hujum qildi va o‘zining biror joyiga tig‘ tegizmay, chap bera oldi; lekin uchinchi marta – o‘ziga zarba berishidan ehtiyot bo‘lish uchun ayiqning qurol ushlangan qo‘lini siqib tushirmoqchi bo‘ldi. Shunda Makkenzi g‘animining kishini dahshatga soladigan kuchini his qildi. G‘animi siqib turgan mushaklari zirqiradi, paylari, bo‘g‘inlari zo‘riqqanidan mana, hozir yorilib ketadiganga o‘xshab tuyuldi... rus po‘latining tig‘i esa tobora yaqinroq kelmoqda edi... U raqibining changalidan ozod bo‘lishga urindi, biroq bu harakati besamar ketdi. Mo‘ynali odamlar qurshovi yanada jipslashib boraverdi, – so‘nggi zarba yaqin qolganiga hech kim shubha qilmayotgan, ular bu tomoshani ko‘rishga sabrlari chidamayotgan edi. Shunda Makkenzi usta jangchiday usul qo‘lladi, o‘zini chekkaga olib qochdi-da, raqibiga kalla qo‘ydi. Ayiq noiloj orqasiga tisarildi, muvozanatini yo‘qotdi. Makkenzi zudlikda bu fursatdan foydalandi va butun og‘irligini unga tashladi, uni tomoshabinlar halqasidan nariga, bosilmagan qalin qorga irg‘itib yubordi. Ayiq arang yerdan turdi-da, yana Makkenziga tashlandi. – Ey, mening erim! – xatar yaqinlashib kelayotganini bildirib, Zarinkaning ovozi yangradi. Shu payt kamoning tarang tortilib, “shuv” etgan ovozi eshitildi, Makkenzi qochib qolishga ulgurdi, – poyanagi suyakdan yasalgan nayza ular ustidan uchib, to‘g‘ri Ayiqning ko‘ksiga borib qadaldi, u raqibi ustiga gup etib yiqildi. Makkenzi zumda o‘rnidan turib ketdi. Ayiq tanasida jon asari yo‘q, qimir etmay yotar, gulxanning boshqa tomonida shomon ikkinchi nayzani otishga hozirlik ko‘rmoqda edi.

Makkenzi buni ko‘rdi, darhol pichog‘ini olib, tig‘ tomoni uchidan tutdi va o‘sha tarafga otdi. Pichoq yashinday yaltirab, gulxan ustidan uchib o‘tdi. U naq sopigacha shomonning bo‘g‘ziga qadaldi, shomon gandiraklab-gandiraklab, lang‘illab turgan cho‘g‘lar ustiga yiqildi. Atrofni qiyqiriq tutdi – Tulki Tiling-Tinnexning miltig‘ini qo‘liga olvolib, unga patron joylashga urindi, lekin eplay olmadi, shunda Skrufning qah-qah urib kulganini eshitib, qurolni qo‘lidan tushirib yubordi.

– Demak, Tulki mana bu o‘yinchoqni qanday ishlatishni haliyam o‘rganib olmabdi-da? Demak, Tulki haligacha ojiz ekan-da. Buyoqqa kel! Miltiqni ber, senga o‘zim otishni o‘rgatib qo‘yaman. Tulki ikkilandi.

– Beri kel deyaqman senga!

Tulki tepki yegan kuchukdek bo‘shashib, unga yaqin keldi.

– Mana, qara, mana bunday qilasan, bo‘ldi.

Makkenzi patronni o‘z joyiga joyladi, tepkini «shaq» etkizib qo‘ydi, miltiqni yelkasiga osdi.

– Tulki bu tun buyuk voqealar sodir bo‘ladi, degan edi, uning gapi to‘g‘ri chiqdi. Chindan buyuk voqealar sodir bo‘ldi, lekin ularni Tulki sodir etmadi. Nima, u haliyam Zarinkani o‘z chodiriga olib ketmoqchimi? U ham shomon bilan Ayiqning izidan yurmoqchimi? Unday emasmi?

Yaxshi!

Makkenzi nafrat bilan yuzini o‘girib, shomonning bo‘g‘zidan pichog‘ini sug‘urib oldi.

– Ehtimol, yosh ovchilar ichida shunday qiluvchilar topilib qolar? Agar ular yana kurashmoqchi bo‘lsalar, Bo‘ri ularni ham bitta qo‘ymay o‘sha yoqqa jo‘natadi. Xohlaydiganlar yo‘qmi?

Yaxshi. Tiling-Tinnex, men, mana, ikkinchi marta miltiqni senga beryapman. Agar qachonki Yukon tomonlarga boradigan bo‘lsang, Bo‘rining eshigi sen uchun ochiq, u senga uyidan joy beradi va to‘kin-sochin dasturxonni sen bilan baham ko‘radi. Ana tun ham kunga o‘tib boryapti. Men ketaman, balki yana kelib ham qolarman, yana so‘nggi bor so‘zimni qaytaraman: Bo‘ri Qonunini yodda tuting!

U Zarinkaning yoniga keldi, stikslar esa Makkenziga bir mo‘‘jizaviy mavjudotga qaraganday qaradilar. Zarinka chana oldidagi o‘ziga atalgan joyni egalladi va itlar yo‘lga ravona bo‘ldi. Oradan biror daqiqa o‘tgach, ular qorli g‘ira-shira o‘rmonga singib ketdilar. Shundagina qimir etmay turgan Makkenzi ham chang‘iga oyoq qo‘ydi va ularning izidan ketishga hozirlandi.

– Nahotki Bo‘ri beshta katta quti tamakini tashlab ketishni unutgan bo‘lsa?

Makkenzi g‘azab bilan Tulkiga o‘girildi, negadir birdan kulgisi qistadi.

– Men senga bitta kichkina qutida tamaki beraman.

– Bo‘ri baribir Bo‘riligini qildi-da,— dedi sekingina Tulki qo‘lini cho‘zib.

* *K l o n d a y k* – Yukon daryosining irmog‘i; 1896 yilda u yerda ko‘pdan-ko‘p oltin sochmalari topilgan.

* *Ch ye-ch a-k u a s* – yangi kelganlar.

* *S a m s o n* – “Bibliya” dagi favqulodda kuchli qahramon.

* *L o s* – bug‘ular oilasiga mansub butoq shoxli hayvon.

* *M o k a s i n* – hindilar oyoq kiyimi.

* *K ye t a* – baliq turi.

* *S k v o* – Shimoliy Amerika hindilari tilida: ayol.

* *G r i z l i* – Amerikaning shimoli g‘arbida yashovchi jigarrang ulkan ayiq turi.

* *T o t ye m* – biror jonivor, o‘simlik yoki diniy mansubligi belgisi bo‘lmish tabiatning qandaydir unsuri tasviri tushirilgan qabila ramzi.

* *D y u y m* – uzunlik o‘lchovi, 25,5 mm.

“Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 yil, 12-son.